

**ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

TARIX FAKULTETI


TARIX KAFEDRASI

BITIRUV MALAKAVIY ISH


MAVZU: "AHMAD DONISHNING ILMIY MEROSI"

5220200-«Tarix» ta'lim yo'nalishi bakalavr darajasini olish uchun

**Tarix ta'lim yo'nalishi
bitiruvchisi: G'ulomov
Jafar**



**Ilmiy rahbar o'qituvchi
Klichev O.A.**



Buxoro-2014

**Бухоро давлат университети тарих факультети Тарих йўналиши
битирувчиси Гуломов Жафарнинг “Ахмад Донишнинг илмий мероси”
мавзундаги битирув малакавий ишига**

ТАҚРИЗ

XIX аср охири – XX аср бошлари ватанимиз тарихидаги бурилиш давлрларидан бири ҳисобланади. Бундай даврда яшаб, мавжуд шароитни англаб, ривожланишнинг тўғри йўлини танлай олган шахслар эса кўп бўлган эмас. Шу билан бирга мавжуд аҳволни ёритиш ҳукмдорлар тазйиқи туфайли ҳамма вақт ҳам ҳолисона амалга оширилмаган. Бундай ҳолисона тарихни камдан-кам тарихчилар ёзиб қолдирганлар.

Битирувчи Жафар Гуломов ўз битирув малакавий ишида ана шундай буюк тарихчилардан бири бўлган - Ахмад Донишнинг илмий мероси ҳусусида батафсил тўхталиб ўтган. Бунда олимнинг ҳаёти, амир саройидаги фаолияти, амирларга бўлган муносабати, ундаги ислохотчилик ғояларининг шаклланиши, охир оқибатда саройдан узоклашиши каби жараёнлар теран ўз аксини топган. Донишнинг тарихий асарларига алоҳида тўхталиб, муаллиф режа сўнгида ўз мустақил фикрини билдиришга ҳаракат қилган.

Ҳаммамизга маълумки Ахмад Дониш фақатгина тарихчи эмас, балки ўз даврининг атоқли олими, диний ва дунёвий фанларнинг билимдони сифатида ҳам машҳур бўлган. Битирувчи ўз ишида унинг шу жиҳатларини ҳам инобатга олган ҳолда Ахмад Дониш қарашларида давлат бошқаруви масалалари ҳусусида кенг тўхталиб ўтган. Бунда давлатнинг ҳар томонлама ривожланишида одил шохнинг зарурлигини алоҳида таъкидлаб ўтади.

Битирув малакавий иши барча стандартларга тўлиқ жавоб беради. Иш ириш, икки боб, тўртта режа, хулоса, фойдаланилган адабиётлар рўйхати ҳамда иловалардан ташкил топган.

Шу билан бирга ишни ёзишда баъзи орфографик хатоларга йўл қўйилган. Бироқ бу камчилик ишнинг илмий аҳамиятини туширмайди. Битирувчига савол: Ахмад Дониш ва Фитрат ўртасида бевосита бифер-бифер муносабат бўлганми?

Таризчи:

Файзуллаев Ш.Н

REJA

KIRISH

I.BOB. XIX asrda Buxoro amirligidagi ijtimoiy-siyosiy ahvol

1.1. Buxoro amirligidagi siyosiy hayot.

1.2. Ahmad Donish va uning ijtimoiy-siyosiy faoliyati.

II.BOB. Ahmad Donish asarlarida Buxoro amirligi tarixi masalalari.

2.1. Ahmad Donishning tarixiy asarlari.

2.2. Ahmad Donishning ilmiy merosida davlat boshqaruvi masalalari.

XULOSA

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Ilova

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasi mustaqilligini qo'lga kiritgach, xalqimiz o'z tarixini xolisona va hech qanday to'siq va qarshiliklarsiz o'rganish imkoniyatini qo'lga kiritdi. Markaziy Osiyo mintaqasida vujudga kelgan davlatchilik an'analari tarixi uzoq o'tmishga borib taqalishi bugungi tarixchi olimlar tomonidan dalillar orqali, ilmiy yondashuv asosida o'z isbotini topgan.

Xalqimiz bosib o'tgan har bir davr bevosita boy tarixiy o'zgarish, taraqqiyot xususiyatlari va o'zaro madaniy ta'sirlar bilan sodir bo'lgan. Bugungi kunga kelib millatimiz tarixining jabhalari va bosqichlarini manbalar asosida o'rganish muhimdir.

Qo'lyozma asarlar, tarixiy obidalar, turli etnografik va lingvistik yodgorliklar asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Buni Yurtboshimiz I.A.Karimov "Albatta har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi o'ziga xos urf – odat va an'analari hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Bu borada tabiiyki ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi"¹ deb takidlaganlar.

Mazkur tamoyildan kelib chiqib, tarixchi olimlar mamlakatimiz tarixini yorituvchi manbalarni alohida guruh va davrlarga bo'lgan holda tadqiq etmoqdalar. O'zbek davlatchiligi tarixida Buxoro amirligi alohida o'rin kasb etadi. Amirlik davri tarixini o'rganishda "Navodir ul-vaqoe", "Tarixi salotini mang'itiya", "Tarixi Salimiy", "Kashkuli Salimiy va Tavorixi mutaqaddimin va muttaaxirin", "Buxoro mang'it amirlari tarixi" kabi asarlar muhim manba vazifasini bajaradi. Bu kabi manbalarda amirlikning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayoti masalalariga alohida yondashuvlar orqali yoritilganligini ko'rishimiz mumkin. Biz tarixchilar mazkur manbalarni qiyosiy tahlil va tadqiq orqali o'rganishimiz darkor.

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida amirlikdagi siyosiy hayot, ijtimoiy hayotdagi ro'y bergan o'ziga xos o'zgarishlarni Ahmad Donish qarashlari va uning ilmiy me'rosida o'ziga xos yoritilganligini qayd etish joiz. Ahmad Donishning asarlari davr tarixini yoritish bilan birga mang'it amirlarining siyosiy

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. T.:Ma'naviyat, 2008.-B.29- 30.

portretlarini ochib berishi bilan ham muhimdir. Shundan kelib chiqib, Ahmad Donish ilmiy merosini tadqiq etish va uning siyosiy qarashlari xususidagi fikr va mulohazalarini tarixiylik nuqtai nazaridan o'rganish biz yosh tarixchilar oldida turgan muhim va dolzarb masalalardan biridir.

Masalaning o'rganilish darajasi. XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Buxoro amirligidagi ijtimoiy-siyosiy hayot, davlat boshqaruvi va mang'it sulolasi vakillarining siyosiy portretlari masalalarining mazkur davrda faoliyat olib borgan va bugungi kunga kelib ilmiy me'roslari muhim manbaviy ahamiyat kasb etayotgan mahalliy tarixnavislarning o'rganilishi alohida tarixiy tadqiqot sifatida kam o'rganilgan masala hisoblanadi.

Mazkur davrda Mirzo Salimbek va Sadriddin Ayniy kabi tarixnavislar bilan bir qatorda turgan Ahmad Donishning ilmiy merosini o'rgangan tadqiqotlarni ikki guruhga ajratgan holda o'rganildi.

Ahmad Donishning hayoti va ijodiga bo'lgan qiziqish hamda uni o'rganish tarixnavisning tiriklik davridayoq boshlangan. Ushbu an'ana bugungi kunga qadar davom etib, uning hayoti va ilmiy ijodiy merosiga atab bir qator asarlar yaratildi. Xususan, Ahmad Donishning zamondoshi va shogirdi bo'lgan S.Ayniy "Tanlangan asarlar" ining 7 va 8- jildlarida Ahmad Donish shaxsiy hayoti, "Navodir ul-vaqoe" asari haqida ma'lumot beradi.

Sovet davrida Ahmad Donish va uning ilmiy me'rosi bir necha fan sohalari doirasida o'rganilgan. Y.E. Bertels, S.M .Ulug'zoda, A.M.Mirzoyev, Z.Rajabovlar tomonidan o'rganilgan¹. Mazkur davr manbalarida Ahmad Donish faoliyati masalalariga bevosita sovet hukumati mafkurasi asosida yondashilgan.

Mustaqillik yillarida olimning ilmiy me'rosini tadqiq etishda xolislik va tarixiylik tamoyillari asosida yondashilganligini ko'ramiz. Jumladan, Rahmon

¹ Бертельс Е.Э.Рукописи произведений Ахмада Каллэ //Труды Тадж. базы АН СССР. 1936. Т.3. С. 9-28. Улугзода С., Ахмади Дониш.Душанбе. 1946. Мирзоев А., Первая редакция «Наводир-ул-вакоеъ» и время ее составления, «Тр. АН Тадж. ССР», т. 17, 1953; Раджабов З. Ш., Выдающийся просветитель тадж. народа Ахмад Дониш. Душанбе, 1961. Шу муаллиф: Из истории общественно-политической мысли таджикского народа во второй половине XIX — начале XX в. Сталинабад, 1957; Шу муаллиф: О «Политическом трактате» Ахмада Дониша. Душанбе, 1976; Шу муаллиф: Поэт-просветитель таджикского народа - Асири. Душанбе, 1974

Muiniyning “Ahmad Donish hayoti haqida”, R.Vohidov, M.Mahmudovning “Ustod Sadriddin Ayniy saboqlari”, N.Rahimovning “Sadriddin Ayniy ijodiga ustozlar ta’siri” kabi asarlarida Ahmad Donish hayoti, asarlari, ijod yo’li xususida ma’lumot beriladi. 2007-yil Ahmad Donish tavalludining 180 yilligi munosabati bilan “Ahmad Donishning “Navodir ul-vaqoe” asari – adabiy, falsafiy, axloqiy, ma’naviy manba va uning zamonaviy mohiyati” mavzusida ilmiy anjuman bo’lib, ushbu anjuman materiallari asosida “Qomusiy mutafakkir” nomli 2 ta kitob chop etildi. N.G’oyibov, I.Naimov, Sh.Tosheva, E.Toshev, Z.Ahmedova, S.Yakubova, I.H.Abdulloh, T.Rahmonov, SH.A.Hayitov, K.Rahmonov, S.Raupov, R.Jumayev, H.Jo’rayevlarning maqolalarida Ahmad Donish va uning asarlari to’g’risida ham qimmatli ma’lumotlar keltirilgan¹.

Mavzuning maqsadi. Ahmad Donish asarlari orqali XIX asrning ikkinchi yarmida Buxoro amirligidagi ijtimoiy-siyosiy hayot tarixi masalalarining kam o’rganilgan tomonlarini tadqiq etish.

Tadqiqotning vazifalari. Maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- XIX asrning ikkinchi yarmida Buxoro amirligidagi ijtimoiy-siyosiy hayot tarixi masalalarini o’rganish;
- Buxoro amirligining siyosiy hayotida Ahmad Donish faoliyatini tadqiq etish;

¹ Muiniy R. Ahmad Donish hayoti haqida. Buxoro, 2007. Vohidov R., Mahmudov M. Ustod S.Ayniy saboqlari. - T.: Fan, 2004.-B.297.G’oyibov N. Ahmad Donish.//Donishmand, T.: 2008.-B.48. Naimov I. Amu-Buxoro kanalining ilk loyihasi. //Buxoroyi sharif 2012. №6. –B.8; Shu muallif. Shahrimizning ilk xaritasi./Buxoro oqshomi.2012yil, 3-fevral.¹ Tosheva Sh.Ahmad Donish va uning tarixiy risolasi.//Buxoro mavjlari.№.3.2007.-B.38. Toshev E. Ahmad Donishning ilmiy-tarbiyaviy qarashlari./Imom al-Buxoriy saboqlari .-Toshkent.-№.1 . 2008.-B.75-76 ; Ahmad Donish-nafosatshunos.// Tafakkur.-Toshkent.-№.2 . 2012.-B.89. Ahmedova Z. Ahmad Donish davlat boshqaruvi tizimi to’g’risida. //Falsafa va huquq-Toshkent, 2008. №4. -B.41. Yakubova S. Buxorolik yirik olim. /Buxoro universiteti. 2010 yil. 30yanvar. Abdulloh H. Ahmad Donish // Markaziy Osiyoda islom madaniyati . №3, 2005.-B.283-284.Rahmonov T. Ahmad Donishning davlatchilik tamoyillari. /Из истории культурного наследия Бухоры 11-выпуск, Buxoro - 2008.-80 c. Raupov.S Ahmad Donish va siyosiy yetakchilik muammosi./Ahmad Donish-XIX asrning buyuk mutafakkiri va taraqqiyparvari. Buxoro, 2007.-B.189-191.Jumayev R.G’. Ahmad Donishning fuqarolik jamiyatiga oid qarashlari. /Fuqarolik jamiyatini shakllantirishda yoshlarning roli.Buxoro.2010. -B.102-105. Jo’rayev H. Benazir alloma, ajoyib xattot va murabbiy.// Buxoro mavjlari. 2013.№2. –B.49. Hayitov Sh.A.Ahmad Donishning amirlikdagi Rossiya-Buxoro munosabatlari haqidagi qarashlari. /Ahmad Donish-XIX asrning buyuk mutafakkiri va taraqqiyparvari. Buxoro, 2007.-B.132-133.

- Buxoro amirligi tarixini o`rganishda Ahmad Donish ilmiy me`rosining o`rnini tadqiq etish;
- “Navodir ul-vaqoe” va “Buxoro mang`it amirlarining muxtasar tarixi” asarlari orqali Buxoro mang`itlari tarixini o`rganish;
- Ahmad Donishning ilmiy me`rosida davlat boshqaruvi masalalariga oid qarashlarini tarixiylik tamoyillari asosida tahlil etish;

Malakaviy ishning manbaviy asosi. Malakaviy ishning tadqiq manbai sifatida Ahmad Donishning 1964 va 1967-yillarda nashr etilgan “Navodir ul-vaqoe”, shu jumladan, “История мангитской династии” asarlaridan unumli foydalanildi.

Tadqiqotning nazariy va uslubiy asosi. Makaviy ish asosini Prezident I.A.Karimovning tarixiy izlanishlar oldiga qo`ygan tarixiylik, xolislik va vorisiylik tamoyillarga rioya qilgan holda yondashish.

Himoya olib chiqilayotgan asosiy holatlar. XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi Buxoro amirligi tarixining Ahmad Donish merosida tutgan o`rnini tadqiq etish, mazkur davrdagi ijtimoiy-siyosiy hayot tarixini o`rganish, mang`it sulolasining so`nggi vakillarining faoliyati va ularning sulola tarixidagi o`rnini belgilash, Ahmad Donish ilmiy me`rosida davr tarixini yoritishdagi yondashuvlarni tahlil etish kabi masalar.

Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi va hajmi. Ish kirish, 2 bob, 4 reja, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati va ilovalardan iborat. Bitiruv malakaviy ishning umumiy hajmi ____ betni tashkil etadi.

I.BOB XIX ASRDA BUXORO AMIRLIGIDAGI IJTIMOIIY-SIYOSIY AHVOL

1.1. Buxoro amirligida siyosiy hayot

XIX asrning boshlaridan boshlab Buxorodagi ma`rifatparvar, musulmon ruhoniylari va ziyolilarida madrasa va maktablarni isloh qilish fikri paydo bo`la boshladi. Bunday islohot tarafdorlari jadidlar ya`ni yangilik tarafdorlari deb atalishar edi. Bunday yangilik tarafdorlarining yorqin namoyondasi sifatida Abu

Nasr al-Kursaviy, tarixchi Olim Marjoniy, Mulla Xudoyberdi Boysuniy, Sadriddin Ayniy, Ahmad Donish, Fitrat Fayzulla Xo`jaev nomlarini keltirish mumkin.

Jadidchilik harakati vakillaridan biri bo`lgan Abdurauf Fitrat – o`zining “Bayonoti sayyohi hindi”, “Amir Olimxonning hukmronlik davri” asarlarida Buxorodagi ijtimoiy-iqtisodiy hayot, jadidchilik harakati mohiyati, hukmdorlarining olib borgan siyosatlari haqida fikr yuritadi. U mamlakat taraqqiyotida ilm-fanning o`rnini e`tirof etib shunday deydi: “Agar biz o`zimizning bilimimiz va iqtidorimizdan foydalanmasak, nimaiki e`tiborli, ustun, balki eng yomon va past maxluqlardan ham pastroq va yomonroq bo`lib qilishimiz aniqdir”¹.

Jadidchilik harakati mohiyati haqida F.Xo`jaev o`z maqola va 1926 yilda chop etilgan “Buxoro inqilobi tarixiga doir” asarida fikr yuritib, O`rta Osiyoda milliy inqilobiy harakatga boshchilik qila oladigan kadrlarni tayyorlashda jadidchilik asosiy negiz bo`lganligini ta`kidlagan.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Buxoroda ro`y bergan ijtimoiy-siyosiy tuzum, madaniy-ma`rifiy hayot, mang`it amirligining olib borgan siyosatlari, rus bosqini haqida mufassal ma`lumot beruvchi ma`rifatparvar shaxs Ahmad Donish hisoblanadi. Buxoro amirligi o`zbek xonliklari orasida o`zining hududiy o`rni, aholisi va tabiiy resurslari jihatidan muhim mavqeiga ega edi. Uning chegaralari janubda Amudaryoning so`l qirg`og`idan boshlanib, Sirdaryogacha cho`zilib, qozoq juzlari bilan chegaradosh edi. Amirlik sharqda Pomir tog`lari, g`arbda Xiva xonligi chegaralarigacha bo`lgan hududni tashkil etardi. Buxoro va Samarqand kabi yirik shaharlar joylashgan Zarafshon vodiysi amirlikning markaziy qismi hisoblanardi. Qashqadaryo va Surxondaryo vohalari, hozirgi Tojikiston hududidagi Vaxsh, Kafirnihon, Panj daryolari vodiysida joylashgan shahar va qishloqlar, hozirgi Turkmaniston hududidagi Murg`ob daryosi vohalaridagi yerlar Buxoro amirligiga qarar edi.

Buxoro amirligining poytaxti Sharqda eng nufuzli shahar sifatida e`tirof etilgan Buxoroi Sharif edi. Yirik shaharlardan Samarqand, Qarshi, Shahrisabz,

¹Alimova D, Rashidov U. XIX asr oxiri -XX asr boshlarida Buxorodagi siyosiy harakatlar va kurashlar. Buxoro, 2009.- B.19.

Kitob, Termiz, Sherobod, Hisor, Dushanbe, Ko'lob va boshqalar amirlik tasarrufida edi. Marv va Chorjo'y shaharlari uchun Buxoro amirligi bilan Xiva xonligi o'rtasida, Jizzax, O'ratepa va Xo'jand shaharlari uchun Buxoro amirligi bilan Qo'qon xonligi o'rtasida tez-tez urushlar bo'lib, bu shaharlar qo'ldan-qo'lga o'tib turardi.

Amirlik iqtisodiy hayotida qoloqlik, turg'unlik hollari mavjud bo'lib, aholining turmushi past darajada edi. Yerga egalik shakli ming yillar davomida o'zgarmay kelgan, aholiga solinadigan o'lpon va soliqlar haddan tashqari ko'p edi. Aholi sotib olish qobiliyatining pastligi hunarmandchilikning rivojlanishiga to'sqinlik qilardi.

Buxoro amirligi monarxiya tipidagi davlat bo'lib, amir cheklanmagan hokimiyatga ega edi. Buxoro amirligini XIX asr oxirlarida mang'itlardan bo'lgan amirlar boshqarardi. Bu davrga kelib ya'ni, 1860 yilda Buxoro taxtiga Amir Muzaffar o'tiradi. Mang'itlar sulolasidan bo'lgan bu amirning otasi Nasrulloxon davrida Karmanaga hokimlik qilgan edi. Amir Nasrullo vafotidan so'ng, Muzaffar Buxoro taxtiga o'tiradi. Otasi tomonidan Karmanaga surgun qilingan kishilarni Buxoroga qaytarib, yuqori lavozimlarga tayinlaydi. 1863-1865 yillarda Markaziy hokimiyatga bo'ysunishni istamayotgan Hisor, Shahrisabz, Darboz, Ko'lob, Baljuvon bekliklari va Qo'qon ustiga yurish qilib, ularning qarshiligini yengadi. Mallaxon tomonidan taxtdan tushirilgan Qo'qon xoni Xudoyorxon Buxoroga qochib kelganida xonlik taxtini qayta egallashi uchun unga 1861 yilda harbiy yordam beradi. Muzaffarning hukmronlik davri Rossiyaning O'rta Osiyo xonliklariga qarshi harbiy harakatlari kuchaygan davriga to'g'ri keladi. Rossiya bilan bo'lgan kelishmovchiliklarni tinch yo'l bilan bartaraf etishda umidini uzmay, u Najmiddinxo'ja boshliq elchilarni 1865-yil iyulida Peterburgga jo'natadi. Biroq, ko'zlangan maqsadga erishilmay, ikki o'rtada harbiy harakatlar boshlandi.

Amir Muzaffar qo'shini bilan general Romanovskiy boshchiligidagi Rossiya harbiy kuchlari o'rtasidagi dastlabki to'qnashuv 1866-yil 8-mayda Jizzax bilan O'ratepa o'rtasidagi Erjar (Maydayulg'un)da bo'lib, unda Buxoro qo'shini mag'lubiyatga uchragan. Amir Muzaffar Muftiy Muhammad Porso boshchiligidagi

elchilarni Afgʻoniston va Hindiston orqali yordam soʻrab, Istanbulga yuborsa ham rad javobini olgan. 1868-yil 2-3-iyunda Zirabuloq jangida magʻlubiyatga uchragach, 1868-yil 23-iyunda Samarqandda imzolangan Rossiya-Buxoro sulh shartnomasiga koʻra, Buxoro amirligi Rossiyaga tobe boʻlib qolgan. Oʻgʻli va valiahd Abdulmalik (Katta toʻra) Rossiya bosqini va otasi hukmronligiga qarshi Shahrisabz va Kitobda 1870 yilda qoʻzgʻolon koʻtarganda Amir Muzaffar rus qoʻshinlari yordamida uni bostiradi.

Amir Muzaffar davrida Buxoro amirligining Rossiyaga qaramligi kuchayishi bilan bir qatorda shia oqimi vakillarning taʼsiri ham ortgan. Amir Muzaffar mamlakatni 1885-yil 12-dekabrgacha boʻlgan davrda boshqardi.

XIX asr boshlariga kelganda, amirlikda xizmatkor amaldorlar tabaqasi shakllandi. Faqat amir saroyining oʻzida 300 ga yaqin amaldor xizmat qilardi. Bu tabaqa davlat xazinasidan maosh olar, amirga batamom qaram boʻlib, ularni amirning oʻzi tayinlar yoki egallab turgan lavozimidan olib tashlar edi. Amaldorlar amir farmoyishini bajaribgina qolmay, uning istak-xohishi va koʻnglini topa bilishlari, unga doimo xushomad qilishlari kerak edi. Shu bois saroyda xushomadgoʻylik, amir shaxsini ulugʻlash rasm boʻlib qoladi. Amir va uning oilasigagina emas, quyi mansabdagilar yuqori amaldorlarga ham xushomadgoʻylik qilardilar. Oʻz mavqei, turmushi, oilasining omonligi, mulki uchun qoʻrqish, ertangi kunga ishonmaslik kabi ogʻir vaziyat vujudga keladi. Qisqasi, mansabdorning taqdiri toʻligʻicha yuqori amaldor qoʻlida edi. Mansabni sotish, poraxoʻrlik keng tarqaldi.

Amirlikdagi eng katta saroy mansablari va unvonlari Qushbegi, dargoh vaziri, yaʼni bosh vazir lavozimi edi. Davlatning barcha boshqaruv idoralari unga itoat etar edi. Bir soʻz bilan aytganda, barcha ijroiya hokimiyat qushbегining qoʻlida edi. Viloyat va tuman hokimlari ham qushbegi tavsiyasiga binoan tayinlanar edi. Qushbegi xon istiqomat qilib turgan arki oliyda turar edi.¹

Amirlikda devonbegi, mushrif, dodxoh, miroxoʻr, dasturxonchi, toʻqsobo, parvonachi, sadrlar, shayxulislom, qozikalon kabi lavozimlar mamlakatdagi

¹ Oʻzbekiston davlatchiligi tarixi ocherklari -T.: Sharq, 2001. –B.78.

muhim ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy masalalarni hal etish va boshqarish ishida alohida o'rin egallagan.

Amaldorlarga amir nazariga tushgan xizmatlari uchun otaliq, eshik og'asi kabi e'tiborli unvonlar berilgan. Xonning, uning o'g'illarining ham otalig'i bo'lgan. Amaldorlar harbiy yurishlarda ham qatnashgan. Xon yig'inida amaldorlarning nufuziga qarab o'rni bo'lar edi. Shunga ko'ra, ular xonning o'ng va so'l tomonida, unga yaqinroq va uzoqroq yerda o'tirardilar. Ba'zilar o'tirishar, ba'zilar esa tik turishardi. Kattaroq amaldor saroyga ot minib kirsar, ba'zilar piyoda kirardi.

Amirlikda amaldorlardan tashqari diniy ulamolar ham hukmron mavqega ega edi. Ular o'zlarini Muhammad payg'ambarning avlodlarimiz deb hisoblovchi sayyidlar hamda choriyor xalifalar-Abubakr, Umar, Usmon va Ali avlodlaridanmiz deyuvchi xo'jalardan iborat edi. Ular katta yer-suvga, savdo do'konlariga, hunarmandchilik ustaxonalariga ega edilar. Amirlikda jo'ybor shayxlari alohida mavqega ega bo'lib, XIX asrda ular Buxoroda o'n olti mahalla bo'lib yashardi.

Sudlov ishlarida shariat qonun - qoidalariga rioya etilishini ta'minlashda shayxulislom, a'lam va qozilar amirning eng yaqin yordamchilari edi. Amirlikda eng katta mansabdorlardan yana biri – qozikalon hisoblanardi. Uning mahkamasida har bir viloyatdan bittadan qozi ish olib borardi. Ularni amirning o'zi tayinlardi. Qozi din masalalari, oila, meros, jinoiy ishlarga oid masalalar bo'yicha hukmlar qabul qilardi.

Amir qo'shinining jangovorlik darajasi past edi. Askarlar harbiy mashqlarga nisbatan ko'proq mehnat bilan band bo'lardi. Sipohlikka 15 yoshdan 70 yoshgacha erkaklar olinardi, qo'shin safida keksayib qolganlar anchagina bo'lardi. Amirlikning yillik daromadi 2 mln. 300 ming so'm bo'lgani holda, uning 1 mln. 300 ming so'mi qo'shinni saqlashga sarflanardi. Oziq-ovqat yetishmasligidan sipohlar qochardi.

XIX asr o'rtalarida askarlar soni, piltali miltiq va to'plar ham anchagina ko'paygan. Qo'shinda yuz boshi, ming boshi singari harbiy lavozimlar bo'lib, umumiy qo'mondonlikni lashkarboshi boshqargan. Amirlikning qo'shini

muntazam bo'lmay, zaruriyat bo'lganda to'planardi, ularni to'plash qiyin kechardi. Bu amirlikning zaiflik omillaridan biri edi.

Amir Muzaffardan so'ng ko'p o'tmay taxtga amir Abdulahad keladi. U mamlakatni to 1910 yilgacha boshqardi. So'ng taxtga amir Olimxon keldi. U ham mang'itlardan bo'lgan Buxoro amiri edi. 1893-1896 yillar davomida Peterburgdagi Nikolaev (pajlar) korpusida ta'lim oladi. 1898-yil Qarshi, valiahd sifatida Karmana bekliklariga hokim bo'lgan. Otasi vafotidan so'ng 1910-yil 24-dekabrda Buxoro taxtiga o'tirgan. Uning davrida Buxoro amirligining Rossiyaga qaramligi yanada kuchaydi. Taraqqiyparvar kuchlar shuningdek, yosh buxoroliklar qattiq ta'qib qilindi. Birinchi jahon urushi davrida, aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, 1915-yil dekabrda Rossiya imperatori Nikolay II uni general – leytenant harbiy unvoni bilan taqdirlagan va o'zining general – ad'yutanti qilib tayinlagan. Chunki u Rossiyaga katta miqdorda pul bilan yordam bergan edi. Buxoroda 1917-yil aprel namoyishi, xususan, Kolesov voqeasi (1918-yil mart) dan keyin u amirlik hududida 3 ming kishini jadidlikda ayblab, nohaq qatl ettirgan.

1920-yil avgustda Buxoro bosqini natijasida amirlik tuzumi ag'darib tashlandi. Sentabr oyining o'rtalarida Olimxon Sharqiy Buxoroga borib, Buxoro xalqining bosqinchi qizil armiyaga qarshi olib borgan mustaqillik kurashiga rahbarlik qilishga urindi. Olimxon Hisor viloyatini o'ziga qarorgoh qilib, 6 oy davomida qizil askarlarga qarshi kurashgan. Hisorda yangi hukumat tashkil qilib, buxoroliklarning qizil askarlarga qarshi olib borayotgan jang harakatlarini muvaffaqiyatlashtirishga intilgan. Olimxon Ko'lob, Hisor va Dushanba atrofida katta miqdordagi kuchlarni birlashtirishga muvaffaq bo'lgan. 1920-yil noyabr oyining o'rtalarida uning qo'shinlari Boysun, Darband, Sherobodni qizil askarlardan ozod qilishdi. Olimxon ixtiyoriga Farg'onadan yordamga yuborilgan 4 ming yigit ham Sharqiy Buxoroga yetib keladi. 1921-yil 8-yanvarda Olimxon qo'shining miqdori 25 ming kishiga yetgan. Hisordan Ko'lob viloyatiga kelgan Olimxon butun qo'shinlariga Ibrohimbekni oliy- bosh qo'mondon (o'rinbosarlar: Sharqiy Buxoroda – Davlatmanbek va G'arbiy Buxoroda – mulla Abdulqahhor) qilib tayinlaydi. Biroq, bir qator janglarda mag'lubiyatga uchragach, Olimxon

1921-yil 4-martda Amudaryoning Chubek kechuvidan Afgʻonistonga oʻtib ketgan. Olimxonni Kobulga Afgʻoniston amiri Omonullaxon qabul qilib, doimiy yashashi uchun unga Qalʼaiy Fotuda maxsus qarorgoh ajratib beradi. U Kobulda yashasa ham Buxorodagi ozodlik harakatiga gʻoyaviy jihatdan rahbarlik qilishda davom etdi, qoʻrboshlar va ulamolarga turli maktublar va qimmatbaho sovgʻalar joʻnatib, ularni kurashga ilhomlantirgan. Olimxon Kobulda oʻzining ustaliklarini yozib tugallaydi. Umrining oxirida koʻzi ojizlanib qoladi, ogʻir dardga chalinadi uzoq davom etgan hastaliklardan soʻng u Qalʼaiy Fotuda vafot etadi. Kobul atrofidagi “Shahidoni islom” (islom shahidlari) qabristonida dafn etilgan.

Oʻz navbatida, XIX asr oxirida Buxorodagi ijtimoiy-siyosiy ahvolga kengroq nazar tashlaydigan boʻlsak, birinchi navbatda shu davrda yashab faoliyat yuritgan kishilarning yozib qoldirgan maʼlumotlari alohida ahamiyatga egadir. Bu davr tarixini tushunishda Ahmad Donishning asarlari juda qoʻl keladi. Ahmad Donishning XX asr 50-yillari oʻrtalarida amir Nasrulloh saroyida bosh hattot va rassom sifatida ish boshlagan. 1870-yilda adolatli davlat haqidagi mos kelmaydigan xizmatini ixtiyoriy tark etadi¹.

Ahmad Donish 30 yoshligidayoq yaʼni 1857 yilda u ilk marta Rossiyaga safar qilib Buxoro amirligi taraqqiyot sohasida Yevropa mamlakatlaridan naqadar orqaga qolib ketganidan iztirob chekdi. Shundan keyin 1869, 1873 yillarda qilgan takroriy safarlari natijasida rus hukmdorlari saroyidagi hayot, davlatni boshqarish usullari bilan chuqur tanishdi, bir vaqtlar inson sivilizatsiyasining makonlaridan biri boʻlgan Buxoroi Sharifni qoloqlik botqogʻidan chiqarish yoʻllarini izladi.

Shunday izlanishlar jarayonida u “Nodir voqealar” va “Buxoro amirlarining tarjimai hollari” asarlarini yaratib, ularda chinakam adolatparvar hukmdor kim boʻlishi mumkinligi va u mamlakatni qay tarzda boshqarganda iqtisodiyot va madaniyat gullab-yashnashi toʻgʻrisidagi gʻoyalarni ilgari surdi. Uning fikricha, agar podshoh hamma sohada odil siyosat yurgizsa, hunarmandchilikni rivojlantirib,

¹D.Alimova, U.Rashidov. XIX asr oxiri-XX asr boshlarida Buxorodagi siyosiy harakatlar va kurashlar. Buxoro. 2009. - B 25.

savdo-sotiqqa keng yo'l ochib bersa, xalqning hayoti farovon bo'ladi. Bunday siyosat yurgizish uchun esa hukmdor birinchi navbatda aqlli bo'lishi lozim.¹

Ahmad Donish XIX asrning 70-yillaridan to amir Muzaffar vafotiga qadar, uzoq G'uzor va Norpay viloyatlarida qozi bo'lib ishlaydi. U "Navodir al vaqoe" (Nodir voqealar) asarida mavjud tuzumga o'z munosabatini bildiradi va Buxoro xonligida davlat boshqaruvi islohotini taklif etadi. Xususan, uning "Risola" nomi bilan tanish bo'lgan "Risolai tarixi amiron mang'it" (Mang'it amirlari tarixi haqida risola) nomli mashhur asarida mamlakatning yorqin tasviri berilgan bo'lib, boshqaruv tizimi bayoni, xalqlarning ahvoli, Rossiya bilan urush masalalari yoritilgan. Ahmad Donish amir Doniyoldan to Abdulahadgacha bo'lgan (amir Shohmuroddan tashqari) barcha Buxoro amirlarini davlat va uning fuqarolari farovonligi yo'lida emas, balki faqat o'z shaxsiy manfaati yo'lida qayg'urgan qobiliyatsiz hukmdorlar sifatida tavsiflaydi. "Ular – deb yozadi u, - nima topishsa, o'shani olib qo'yishar, beva-bechoralar shamchirog'idagi olovdan tortib, vaqf omboridagi g'allagacha o'g'irlashar, qorin g'ami va quvonchu xursandchiliklariga xizmat qilsa bo'ldi edi. Hech kim qarshilik ko'rsatishga jur'at etmasdi. Amirlar va hokimlar orasida qimorbozlik, mayxo'rlik va buzuvchilik avj oldi, dehqon va hunarmandlarda esa shafqatsizlik, ezish, soliqlar va aminona, vakilona kabi yig'imlar serobligidan na turish, na yurishga hol qoldi". Mana shunday hayotdan misollar keltirib, yozadi: "Agar biror beva bozorga bir to'p ip olib kelsa, uni 3 fulusga (mahalliy tanga) sotsa, shundan ikki fulusini amin olib qo'yadi, agar biror kishi bir bog'lam o'tinni uch dirhamga sotsa, shundan ikki qismi amin ulushi bo'ladi".

Ahmad Donishning ma'lumoticha Buxoroda o'g'rilik avj olgan edi, ya'ni bozorga mol olib kelgan dehqonning mahsulotlari taroziga tortilishi bahonasida o'g'irlanar edi. Bunday vaziyat barcha sohalarda uchrardi. Sug'orish sohasida ham shunday vaziyat kuchli edi. Shaharga suv kelishidan ancha oldin miroblar haq ola boshlar, u hatto ariq tozalaganlardan ham olinardi. Dehqonlardan odam turmaydigan yerlar uchun ham soliq olinar to'lamaganlarni qamoqxona kutardi.

¹ N.Naimov. "Buxoro jadidlari". T.: Fan, 2000.-B.5.

Mirshablar haqida gap ketganda, Ahmad Donish so'zicha, ular davlatdan maosh olmagan. Ularga nohaq aholi to'lovlari hisobidan maosh berilgan, tabiiyki, shu bois ular fuqaro manfaatlarini muhofaza qilish o'rniga, hatto, bosqinchilar bilan kelishib, qaroqchilik ham qilardi. Albatta, bu chirik tizimning eng quyi qatori edi. Oliy qator esa saroyda bo'lib, davlat lavozimiga tayinlash pora shaklida, ulkan tuhfa yoki davogar lavozimiga go'zal yoshgina qiz tortig'i bilan tayinlangan.

Amir Muzaffar davrida amaldorlarning suistemolchiliklari, hokimlar va amirlarning ochko'zligi, o'z hatti harakatlarini oqlash uchun diniy qonun-qoidalardan foydalanishi, qoloqlik xususiyat kasb etuvchi ta'limning ayanchli ahvoli, davlat mustaqilligini saqlashga yo'naltirilgan aniq tashqi iqtisodiy harakatlarning yo'qligi, mintaqada yangi yerlarni bosib olishga yo'naltirilgan ancha tor intilishlar, xalqning qashshoq ahvoli Buxoro xonligining umumiy manzarasini tashkil etardi. Biroq, Ahmad Donish shunchaki tanqidchi emas edi, Vatanning g'arib ahvolini anglashdek og'ir yuk uning yelkasiga tushgandi. U rivojlangan mamlakatlar haqida yaxlit tasavvurga ega edi, shuning uchun ham Vatanini taraqqiyot yo'liga olib kiradigan yo'llar borligiga va mutaraqqiy ishlarda qobiliyatli insonlar borligiga ishongan.

XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi voqealar bayon etilgan asar "Tarixi salotini mang'itiyya dor ussaltanai Buxoroi Sharif" (Buxoroi Sharif saltanatidagi mang'it hukmdorlari tarixi) asari muhim hisoblanadi. Ushbu asarning muallifi Mirza Muhammad Abdulazim Somiy Bo'stoniy hisoblanadi. U Ahmad Donishning izdoshi bo'lgan. Somiy tarixchi, adabiyotchi, shoir, xattot va nutq ustasi bo'lgan. Boshlang'ich ma'lumotni ona yurti-Bo'ston qishlog'ida (Buxoroning shimolida) olgan so'ngra Buxoro madrasalarida o'qigan. Dastlab viloyat hukmdorlari qo'lida kotib, amir Muzaffar taxtga o'tirgandan keyin uning shaxsiy kotibi bo'lib xizmat qilgan. Amir Abdulahad hukmronligining (1885-1910) so'nggida podsholikka qarshi fikrlari uchun saroydan chetlatilib, umrining oxirini nochorkikda kechirgan.

Tarixchi Somiyning "Tuhfai shohiy" (1900-1902 yillar orasida yozilgan) ham, "Tarixi salotini Mang'itiya" (1907 yili yozib tamomlangan) ham bir davr

tarixiga, Buxoro xonligining amir Muzaffar davridagi tarixiga bag'ishlangan. Biroq ular ma'lum darajada bir-biridan farq qiladi, masalan, "Tuhfai shohiy" to'laroq, lekin panegirizm ruhida bitilgan, "Tarixi salotini mang'itiya" esa nisbatan obyektiv yozilgan. Asarning ahamiyati shundaki, unda Buxoro xonligining O'rta Osiyoning Rossiya tarafidan bosib olinishi arafasidagi iqtisodiy va siyosiy ahvoli, Buxoro-Rossiya munosabatlari birmuncha keng yoritilgan.¹

Somiyning fikricha, amir Nasrulloh (1826-1860 yillar) davrida kuchaygan davlat inqirozi va xalq qashshoqligi, hukmron tizimining buzg'unchilik kuchi amir Abdulahad (1885-1910 yillar) davrida Buxoroni juda og'ir ahvolga olib keladi. Somiyning fikricha, "ba'zi tajribali oqsoqollar Buxoro davlati inqirozi sanasini ushbu amir Nasrulloh taxtga o'tirgan paytdan sanay boshladilar va ular o'ylagandek bo'lib chiqdi.

Amir Bahodirxon o'ttiz besh yil podsholik qildi va 1277 (1860) yili dorilfanodan dorilbaqoga rixlat etdi. Uning o'rniga taxtga o'tirgan amir Muzaffar Somiyning yozishicha "...ezish va adolatsizlikda otasidan ham o'tib ketdi... Sekin asta ish shariat qoidolari buzilishiga qadar borib taqaldi". Muallif Rossiya bilan urushdagi mag'lubiyatda Muzaffarxonni aybladi, chunki u o'z manfaatlaridan boshqasini o'ylamay, ruslar Toshkentni qamal qilganidan foydalanib, Qo'qonga hujum uyushtiradi. Tarixchi quyidagi qiziqarli dalilni keltiradi: "Avliyo otani kuch bilan olgan nosaro qo'shinlari (polkovnik Chernyayev qo'mondonligi ostida) Toshkentga u yerdan hujum qildi va Shoshni o'rab oldi. Amirlar va Toshkentning barcha aholisi qarshilik ko'rsatishga bel bog'ladi va kurashishga qaror qildi.

Ular amir Muzaffarga yordam va butun Buxoro xalqini oyoqqa ko'tarish iltimos qilingan maktubni yo'llaydi... Ayni paytda nasoro qo'shinlari qal'ani xuddi uzukdek o'radi, hammayoqni larzaga keltiruvchi zambarak to'plaridan qizg'in o'qqa tutdi, Toshkent aholisi kuchli to'p zarblaridan qarshilik ko'rsata olmadi va ojizona yordam so'rab faryod qila boshladi. Biroq ular qanchalik amir Muzaffardan maktub va so'z xabari yuborib ojizona yordam so'rashmasin, hammasi befoyda bo'lib chiqdi, amir qo'shinga hujumga o'tish haqida buyruq

¹ Ahmedov B.A. O'zbekiston xalqlari tarixi manbalari. T.:O'qituvchi,2001.-B. 210.

bermadi. Toshkent aholisi buxoroliklar yordamidan umid uzib, qal'a mudofaasida qat'iylik va mardlik ko'rsatib, o'limga tik turishga qaror qildi. Xo'janddan chiqib, amir katta qo'shin va zambaraklar bilan Qo'qonga otlandi. Qo'qon qo'shini esa Toshkentni himoya qilishga otlangan edi. Lekin, Qo'qon mudofaasiga qaytishga majbur bo'ldi. Rus qo'shini shu tufayli shaharni to'rt tarafdin qamal etishga erishdi. Ko'pgina odamlar qilichdan o'tkazilgach, shahar taslim bo'ldi". Bu paytda muallif yozganidek, "amir Muzaffar esa jangsiz va qarshiliksiz Qo'qonga kirdi va ko'ngildagi niyatiga yetishdi".¹

Ko'rinadiki, u qarshilik ko'rsatish tashkilotchisi bo'lishdan uzoq bo'lib, Rossiya qo'shinlariga shundoqqina kelib qolgan bo'lsa ham, urushga tayyorlanmagandi. Faqat Buxoro ruhoniyaatining bosh ko'tarishiga uni muqaddas urush-jihod e'lon qilishga majbur qildi, natijasi mag'lubiyat va vassal davlatga aylanish bilan tugadi. Qo'shin mag'lubiyati sabablarini Somiy va Ahmad Donish amirda qo'shin tuzilishiga oid biror bir o'ylangan qoida yo'qligida deb hisoblashadi. Harbiy qo'mondonlik vazifalariga harbiy ishdan mutlaqo bexabar odamlar tayinlangan edi. Lashkarlarga maosh to'lash tartibsizligi, halok bo'lgan lashkarlar oilasi ta'minlanmaganligi, qo'shinning raqib haqida ma'lumotsizligi yaqqol ko'rinib turardi. Biroq Somiydan farqli o'laroq, Donish ruhoniylarning raqib haqida aniq tasavvurga ega bo'lmagan, ulkan olomonni yig'ib, qo'lga kaltak berib, jihod yurishiga majbur qilgan va bu bilan aniq o'limga yuborgan. Abdulazim Somiy va Ahmad Donish feodal hukmdorlari haqida ham keskin fikr bildirib, xalqning og'ir ahvolini yorqin bo'yoqlarda tasvirlashgan. Ular amir Abdulahad haqida tanqidiy mulohazalar bildiradilar. Somiyning fikricha, uning hukmronlik davrida "temuriy o'zbek xonligi ajdodlaridan asar ham qolmadi", Ahmad Donishning qayd etishicha esa, yangi amir davrida hech narsa o'zgarmadi va xalqning ahvoli yaxshilanmadi.

Buxoroning bu davrlari (XIX asr oxirlari) haqida ma'lumotlarni Mirzo Salimbek ibn Muhammad Rahim asarlarida ham uchratish mumkin. Uning hayoti va faoliyati haqida quyidagilar ma'lum. Jumladan, 1850-1851 yili Buxoroda

¹ Mirza Abdulazim Somiy. Tarixi saltanati mang'itiya. M.: 1962. –B.58-59.

tug'ilgan. 1871 yili Narpay va Ziyovuddin hokimiga kotib bo'lib ishga kiradi, lekin olti oydan keyin amir Muzaffarning amri bilan Toshkentga kuzatuvchi (rus ma'murlarning xatti-harakati va ayniqsa, Buxoro xususida tutgan siyosatini kuzatib borish) qilib yuborildi. Mirza Salimbek Toshkentga choyfurush qiyofasida keldi va bu yerda 12 yil istiqomat qildi. 1880-1883 yillari u amir huzurida, 1884-1885 yillari Turkiston general-gubernatori huzurida Buxoro vakili bo'lib turdi. 1885 yili Mirza Salimbek Somjin tumaniga amlakdor qilib tayinlanadi. Shundan keyin uning martabasi yil sayin ortib boradi. 1888-1893 yillari Buxoro shahrining mirshabi, 1893-1920 yillari Nurota, Boysun, Sherobod, Shahrisabz, Chorjo'y viloyatlarining hokimi va bosh zakotchi vazifasida turdi. Inqilobdan keyin (1920) u ba'zi sovet tashkilotlarida, Buxoroda tashkil etilgan "Anjumani tarix" (Tarixshunoslar jamiyati)da xizmat qildi. Mirza Salimbekning vafot etgan yili ma'lum emas. Mirza Salimbek bir necha yirik tarixiy va adabiy asarlar muallifi. "Kashkuli Salimiy" (Salimiyning kashkuli), "Jomi ul Gulzor" (Gulzorlar majmui), "Ka'b al-Axbor hikoyalari", "Hikoyat Abdulla ibn al Muborak", "Tarixi Salimiy" (Salimiyning tarixi) shular jumlasidandir.

Tarixchilar uchun eng muhimi uning so'nggi asari – "Tarixi Salimiydir"dir. Asarda 1860-1920 yillar voqealarini o'z ichiga olgan katta qismi original bo'lib, muallif bu voqealarning jonli guvohi bo'lgan.¹U amir Olimxon hukmronligi davriga (1910-1920) baho berib, Buxoro iqtisodiyotida tobora o'sib borayotgan inqiroz haqida yozadi. Mirza Salimbek Rossiyaning Buxorodagi mustamlakachilik siyosatini juda salbiy baholaydi. Uning qayd etishicha, amir Olimxon davrida o'sha-o'sha ma'muriy boshqaruv apparati, fuqarolar ustidan amirning cheklanmagan hokimiyati, Buxoro jamiyati hukmron doiralarining tekinxo'rlarcha turmush tarzi, demakki, oddiy xalqning og'ir hayoti saqlanib qoldi. Biroq Olimxon, ajdodlaridan farqli ravishda, irodasi sust, uning hatti-harakatlari ko'p jihatdan atrofidagi mansabdorlarga, kim undan yuqori kelsa, o'shalarga bog'liq bo'lgan.

¹D.Alimova, U.Rashidov. "XIX asr oxiri-XX asr boshlarida Buxorodagi siyosiy harakatlar va kurashlar". Buxoro. 2009. - B 33.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida amirlikdagi siyosiy voqealar va ijtimoiy hayot ham markaziy ham mahalliy boshqaruvdagi kamchiliklar borligini qayd etish mumkin. Mazkur holat amirlikning chor hukumati tomonidan protektoratga aylanishida o'z ifodasini topganligidan ko'rishimiz mumkin.

1.2 Ahmad Donish va uning ijtimoiy-siyosiy faoliyati

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Buxoroda ro'y bergan ijtimoiy-siyosiy tuzum, madaniy-ma'rifiy ishlar, mang'it amirligining olib borgan siyosatlari, rus bosqini haqida mufassal ma'lumot beruvchi ma'rifatparvar shaxslar jumlasida Ahmad Donishning o'rni katta bo'lgan. Mazkur davrda Ahmad Donish nafaqat tarixnavis – balki o'z davrining buyuk faylasufi, shoiri, astronomi, me'mori, matematigi bo'lgan. Ahmad Donishning to'liq ismi- Ahmad Mir Nosir ibn Yusuf al-Xanifiy as Siddiqiy al-Buxoriy bo'lgan. Ko'pgina manbalarda 1827-yilda tavallud topganliklari qayd etiladi.

Sadriddin Ayniy o'z "Esdaliklar" ida Ahmad Donishni : "1826-yilda Buxoro shahrida Mulla Mir Nosir xonadonida tavallud topdi" deb ta'kidlaydi¹. Ahmad Donishning otasi Mulla Mir Nosir Buxorodagi kichik madrasalardan birida dars berardi. Ahmad Donish va u bilan bog'liq ma'lumotlar Sadriddin Ayniy "Esdaliklar" kitobining "Ajoyib odam" qismi alohida o'rin egallagan.

Jumladan, "Bu odam novcha bo'yli bo'lib, oddiy odamlar kiyganda yerga tegadigan podshohlik banoras choponi uning tizzasidan kelardi. Bu kishining gavdasi to'liq bo'lganidan bo'yining novchaligi uncha sezilmas va bir qarashda o'rta bo'yli odamlarday ko'rinaradi. U odamning boshi haddan ortiq katta bo'lganidan unga "Kalla" degan laqab bergan ekanlar. Odamlar uni "Ahmad Mahdum", "Ahmad Mahdumi Donish", "Ahmad Mahdumi Muhandis", "Ahmad Mahdumi munajjim" yoki butunlay qisqartirib "Ahmad Kalla" deb yuritir ekanlar. Ammo o'zini hazil bilan "Ahmadi Porina" (o'tgan yilgi Ahmad) deb va "Odamlar

¹Vohidov R., Mahmudov M. Ustod S.Ayniy saboqlari. - T.: Fan, 2004.–B.297.

meni ne desalar desinlar, men hamon Ahmadi Porinaki budam, hastam" (Men o`sha bulturgi Ahmadman, hozir ham o`shaman) der ekan"¹.

Mazkur fikrlarni davom ettirib, "Bu kishining qo`lida ruscha xassa (palka) bor edi. Palkalar odatda o`rta bo`yli odamlarni nazarga olib yasalganidan, u palka novcha odamga birmuncha qisqalik qilar va u yo`l yurganda qaddi palka tutgan quli tomonga qarab bir oz egilardi. Bu odam sallona-sallona viqor bilan qadam bosib madrasa darvozasidan kirganda, miyonsaroyda o`tirgan madrasa kattalari joylaridan turib, qo`l qovushtirib ta`zim bilan u odamga salom berardilar" – deb ham ta`kidlab o`tadi².

Ahmadning onasi o`z uyida qishloq qizlariga otinoyilik qilib saboq bergan. Bu haqda A.Donish: "Maktabga borishimdan oldin oilamizdagi boshqa bolalar qatori opamdan alifboni o`rgandim, o`qish va yozishni hatto qo`shiqlarni tartibga solishni o`rgandim. Loyshuvoq devorga qalam bilan geometriya shakllarini solganimni aniq, eslayman" deb qayd etib o`tgan.³

Donishning otasi o`z o`g`lini Qur`oni Karimning bilimdoni va hofizi bo`lishini istab u 9 yoshga to`lganda musulmon maktabiga o`qishga bergan. Ahmad bolaligidan tili tutilib gapirganligi uchun Qur`oni Karimni yodlashga qiynalgan, shunday bo`lsa-da, uch yilda u bu mukaddas kitobni yod bilgan.

Bu haqda keyinchalik Ahmad Donish o`zining "Risola dar nazmi tamaddun va taovun" asarida: "Qur`oni Karimni yodlashdan men uncha xursand emas edim: bir qismini qiynalib yodlagach, ikkinchi qismiga o`tar edim. Ba`zan erinchoqligim sababli bir qismini bir varaq qog`ozga yozib olib, domladan yashirincha o`shandan o`qib berardim. Nima bo`lganda ham, men ko`nglimdagi o`jarlikni sug`urib tashlay olmadim va nihoyat katta qiyinchilik bilan Qur`oni Karimni uch yilda o`zlashtirib oldim. Albatta, Qur`oni Karimdek muqaddas kitobni uch yilda yodlab olish uchun ham katta iqtidor egasi bo`lish kerak.

Ahmad Donish ilk ta`limni onasidan o`rgangach, 1836 - 1841 yillar oralig`ida o`g`il bolalar maktabida o`qiydi. 1841-yildan boshlab madrasada tahsilni

¹Sadriddin Ayniy. Tanlangan asarlar. T.5. –T.:Badiiy adabiyot, 1965.–B.204.

² Sadriddin Ayniy. Tanlangan asarlar. T.5. –T.:Badiiy adabiyot, 1965. – B.204.

³ Toshqulov D. Donish. M., 1990, –B.70

davom ettirgan. Mazkur davrda madrasa ta'limi 16-19 yil davom etgan. Shundan 8 yili arab grammatikasini o'rganish, qolgan 11 yil esa islom dini ruxsati bilan tabiiy fanlar, ritorika, mantiq o'qitilardi.

Ahmad Donishning madrasa yillari sermahsul bo'ldi, bilimga chanqoq talaba madrasada diniy - islomiy fanlar bilan birga matematika, geometriya, astronomiya, musiqa, falsafa va tarix ilmlarini mustaqil o'rgandi. Madrasa mudarrislarining unga berayotgan ta'limi uni qoniqtirmas, u Buxoro shahrida yashasa ham ota-onasi bilan o'z hovlisida turmas, otasi ijaraga olib bergan hujrada tunu-kun kitoblar ustida ishlar edi. Madrasa ta'limi xususida Ahmad Donish shunday yozadi: "Buxoro madrasalarida maktab talabasi uchun kerakli fanlarni o'qitish yomon darajada bo'lgan. Dars berish usullari ham eskirgan edi"¹.

Madrasada o'qib yurgan chog'ida Ahmad Donish mustaqil ravishda handasa (geometriya) va ilmi nujum (astronomiya) kabi fanlarni chuqur o'rgana boshlaydi. Shuningdek, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Umar Xayyom, Navoiy, Fuzuliy, Bedil va boshqa mutafakkirlarning asarlarini qunt bilan mutolaa qiladi. Sharq xalqarining ma'naviy hayoti hamda tarixini chuqur o'zlashtirgan olim bo'lib yetishadi.

Qomusiy bilimlar sohibi bo'lish ishtiyoqi kuchli bo'lgan Donish o'tmish va o'z davrining shoirlari, faylasuflari va umuman sharqning buyuk mutafakkirlarining asarlarini chuqur o'rgandi. Keyinchalik Ahmad Donishning o'zi ham shu madrasalardan birida hujra olib o'quvchilarga ta'lim berardi. Madrasa hujralarida ilm-fan bilan shug'ullanib shu qadar kuchli bilimga ega edilarki, hatto hozirgi texnika namunalari bo'lmagan davridayoq tabiat hodisalarini o'rganib, osmonda kuzatilishi mumkin bo'lgan hodisalarni oldindan aytib berardilar. Bu so'zlarning isbotini Sadriddin Ayniy "Esdaliklar" ida ko'rishimiz mumkin: "Bu kecha falon soat, falon daqiqada oy tutiladi, falon daqiqa davom qiladi, so'ngra ochila boshlaydi. Falon soat, falon daqiqadan keyin butunlay ochiladi. Kimda kim

¹Muiniy R. Ahmad Donish hayoti haqida. Buxoro, 2007. –B.13

tabiatning bu hodisasini o'z ko'zi bilan ko'rmoqchi bo'lsa, ma'lum soatda madrasa tomiga chiqsa, buni o'z ko'zi bilan ko'radi – deb o'tib ketdi"¹.

Haqiqatdan ham Ahmad Donishning buyuk olimligi, yulduzlar va umuman osmoniy jismlar harakatini kuzatish asosida aniq matematik hisob-kitoblar bilan oyning tutilishini oldin bashoratnamo aytib berishi, shak-shubhasiz bu XIX asr Buxorosi uchun juda katta voqea edi.

Ahmad Donish Buxoroda ilmni hamda ma'rifatni rivojlantirishi uchun fidokorlik qilardi. Bu esa uning dunyoqarashi o'sib borganidan dalolat. U uyida haftaning chorshanba, payshanba, juma kunlari shogirdlari va yaqinlarini to'plab suhbatlar o'tkazgan. She'rlar o'qishni tashkil qilgan. Davra suhbatlarida davlat ta'lim tizimini, boshqaruv sohasini o'zgartirish kabi mavzularda munozaralar qilingan.

Ahmad Donish bu suhbatlarda "Olimlar Qur'oni Karim suralarini yoddan bilib, o'zlarini fanning tepasida o'tirganday his qilishadi. Arab alifbosi bu fanning tepasi emas"² - deb yozadi. Uning bu kabi fikrlarini chuqur hurmat qilgan va davom ettirgan bir qancha shogirdlari bo'lgan. Ulardan eng kattasi Sadriddin Ayniy edi.

Shunday bo'lsa ham Ayniy Donishni ko'rish va kuzatishdan, ayniqsa, Donishning Homidbek, Fayzibek, Qori Ne'mat va boshqa doimiy suhbatdoshlarining jonli hikoyalaridan olgan jonli taassurotlari, xususan ustozlari asarlarini o'qish natijasida ko'p narsa o'rgangan va ma'naviy oziqlangan³.

O'z zamonasining yirik ma'rifatparvarlari bo'lgan bu shaxs zamonasining chuqur ilmiy me'mori-arxitektori ham bo'lgan. Ahmad Donishni hali madrasada tahsil ko'rayotgan davrlaridayoq otasi Mulla Nosir buxorolik taniqli muhandis Bobome'mor huzuriga shogirdlikka olib boradi. Ahmad Donishning xotirlashicha, Bobome'mor vafot etgach, amir Nasrulloxon uni saroy bosh me'mori vazifasiga tayinlab, "Maxdum" unvonini beradi va 1000 dirhamlik oylik maosh belgilaydi. Shundan keyin Mirzo Ahmad Donish saroy qurilishida ishtirok etgan barcha

¹Sadriddin Ayniy. Tanlangan asarlar. T.5.–T.:Badiiy adabiyot, 1965. – B.205.

²Muiniy R.Ahmad Donish hayoti haqida. Buxoro, 2007.–B.10.

³Rahimov N. Sadriddin Ayniy ijodiga ustozlar ta'siri. T.: O'zbekiston, 1972. –B.4.

muhandis va ustalar faoliyatiga rahbarlik qiladi. Soʻngra amir elchilari tarkibida Sankt-Peterburgga safarga oʻtlanadi.

Ahmad Donish Buxoroda birinchilardan boʻlib rangli suvoqdan foydalanishni joriy qiladi. Bunda oppoq ganch ustiga giyohlardan tayyorlangan boʻyoqlar bilan ikkinchi qatlam suvoqni amalga oshirib, koʻp mehnatni talab qilmaydigan rang-baranglikka erishilar edi. Xususan, shu usulda oppoq ganch devor ustiga qora, qizil, koʻk yoxud yashil rangdagi yulduzlar tasviri solinar va buning natijasida ajoyib manzaralar vujudga kelar edi.

Keyinchalik Ahmad Donish voyaga yetgan oʻgʻli Karomatjonni ham ganchkorlik va naqqoshlik sanʼatiga oʻrgatadi. Oradan yillar oʻtib, Karomatjon mahoratda tengi yoʻq meʼmor va naqqosh darajasiga yetib, Sitorai Mohi Xossa saroyining saqlanib qolmagan inshootlariga sayqal bergan.¹

Ahmad Donish Amir Muzaffar saroyida davlat arbobi darajasiga koʻtarilgach, tez-tez Shofirkon, Vobkent, Gʻijduvonga safarlar qilgan. U bu safarlar chogʻida yurtning suvsizlikdan qiynalayotganini koʻrib, Buxoro ekinzorlarining sathining Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon daryolarining suv oqimi boʻyicha tahliliy oʻlchovlarni amalga oshirgan va Amudaryo suvini kanal qurish yoʻli bilan Karmana va Kelib orqali Buxoro ekinzorlariga keltirish loyihasini ishlab chiqqan. Bu loyiha Amir Muzaffar tomonidan rad etilgan². Bu loyiha Donishning oʻsha davridayoq uzoqni koʻra olgani va hozirgi Amu-Buxoro kanali loyihasining ilk asoschisi ekanligini koʻrsatadi.

Ahmad Donish 1857, 1869, 1874-yillar mobaynida Buxoro amiri elchilarining mirzasi sifatida Rossiyaning S.Peterburg shahriga borgan.

Ahmad Donish Peterburgda birinchi marta 1957-yilning 9-noyabrida 1858-yilning 12-yanvarigacha boʻldi. Bunda Buxoro amiriligining delegatsiyasi Nikolay I vafoti munosabati bilan Buxoro amirining taʼziyanomasini bildirishi hamda Aleksandr II ning taxtga oʻtirishi munosabati bilan tabriknomasini topshirishi lozim edi. Shuningdek, delegatsiya zimmasiga Rossiya va Buxoro oʻrtasidagi

¹Joʻrayev H. Benazir alloma, ajoyib xattot va murabbiy. // Buxoro mavjlari. 2013. №2. –B.49.

²Naimov I. Amu-Buxoro kanalining ilk loyihasi. //Buxoroyi sharif 2012. №6. –B.8.

savdo munosabatlarini rivojlantirish borasida muzokaralar olib borish ham yuklatilgan edi.

Ahmad Donish bu delegatsiyada kotiblik vazifasini ham ijro etishi lozim edi. Bundan tashqari Buxoro amiri Ahmad Donishga Rossiyadagi hayot va davlat tuzumi masalalarini o'rganishni ham topshirgan edi. Keyinchalik Ahmad Donish yozgan edi: "Menga shunday topshiriq berilgan edi: U mamlakatning ichki tartiblarini o'rgan, davlat qurilishiga e'tibor ber va amir janob oliylariga hisobot ber. Chunki biz qo'shni davlatlardagi ishlar haqida faqat savdogarlar va sayohatchilardan eshitamiz"¹.

Peterburgda Ahmad Donish Rossiya ministrleri va davlatining yuqori mansabdorlari bilan rasmiy uchrashuvlar va muzokaralar olib bordi. Ahmad Donish delegatsiyaning boshqa a'zolari bilan Peterburgning diqqatga sazovor tarixiy joylarini borib ko'rdi, shuningdek, Peterburgdagi texnologiya institutida Imperator Aleksandr manufakturasida, Isakov soborida, Imperator Fanlar Akademiyasining muzeyida, Pulkovodagi astronomik observatoriya (rasadxona) da, Imperatorning botanika bog'ida, Monetniy dvorda, Tsarskoe Selo va boshqa bir qator joylarda bo'ldi. Rus podshosi ma'murlarining bundan ko'zlagan maqsadlari Rossiya davlatining qudratini namoyish etishdan iborat edi.

Buxoroga qaytib kelgach, Ahmad Donish Rossiyada ko'rgan-bilganlarini batafsil hisobot tariqasida bayon qilib, Rossiya davlati boshqaruv tuzilishi, mamlakatni idora qilish tizimi, uning ijobiy va ibratli tomonlari haqida chuqur tahliliy ma'lumot berdi. Ahmad Donish shu narsani aniq his qildiki, davlatni boshqarishda Rossiya tajribasini bayon qilish orqali Buxoro amiriga katta taasurot qoldirolmadi, chunki amir mamlakatni boshqarishda Yevropaning ilg'or tajribasidan foydalanishni xayoliga ham keltira olmas edi. Ammo ma'rifatparvar Donish nafaqat amir, balki uning ma'muriyati va saroy ahlini mamlakatni boshqarishda Yevropaning ilg'or davlatlari bilan qo'shni bo'lgan Rossiyaga yuz tutish lozimligini targ'ib qilish, uqtirishni to'xtatmadi.

¹ Toshqulov D. Donish, M. 1990, –B.78

Ahmad Donishning Peterburgga ikkinchi safari Rossiya istilochilik harakatlari boshlangandan besh yil keyingi davrga to'g'ri keladi. Donish 1869 yilning 2-3 noyabridan 10 dekabrigacha Rossiyada bo'ldi. Bu safar Buxoro Rossiyaning protektorati sifatida o'z elchilik delegatsiyasini jo'natgan edi. Endi delegatsiyaning missiyasiga Rossiya imperatoriga sodiqlik tuyg'ularini izxor qilish, amirning Rossiya bilan do'stona munosabatda bo'lgan holda Toshkent, Samarqand, Jizzax kabi Rossiya tomonidan bosib olingan yerlarni qaytarib olish to'g'risida muzokaralar olib borish edi¹.

Ahmad Donishning Rossiyaga ikkinchi safari uning Rossiya va rus podshosi davlat boshqaruvi tizimi haqidagi tushunchalari va bilganlarini yana boyitdi. Ahmad Donishda dunyoni bilish, keng va chukur bilimlar asosida ijtimoiy - siyosiy va iqtisodiy - madaniy hayot hamda uning taraqqiyoti to'g'risida, xususan, taraqqiyotdan Yevropa mamlakatlaridan orqaga qolib ketgan Buxoro haqida qayg'urish tuyg'usi juda kuchli bo'lgan. Shuning uchun u Peterburgdagi qishloq xo'jaligi, geologiya, transport muzeylarini borib ko'rdi. Yulduzshunos olim bu safar ham Pulkovodagi observatoriyaning qiziqib tomosha qildi, shuningdek qog'oz ishlab chiqarish ekspeditsiyasini, davlat banki xazinasini, shisha va chinini idishlar ishlab chiqariladigan zavodni borib ko'rdi.

Ahmad Donish Rossiyaning harbiy qudratini namoyish etadigan armiyasini, Kronshtadtdagi harbiy qal'ani ko'rib, rus matroslarining hayoti bilan ham tanishdi. Vatandoshimiz Peterburgda rus madaniy hayoti bilan ham qiziqib, Rossiyaning mashhur artistlari ishtirokidagi opera va balet teatrlaridagi sahna asarlari bilan tanishdi. Peterburgda Yekaterina II xotirasi uchun o'rnatilayotgan yodgorlik tantanali marosimlarida ishtirok etdi. Ahmad Donish o'zining bu ikkinchi safari qisqa bo'lsa ham undan unumliroq foydalanib rus xalqining turmush tarzi va urf - odatlari bilan ham tanishishga muvaffaq bo'ldi. Umuman olganda Ahmad Donishning Peterburgga ikkinchi safari Rossiyaning ijtimoiy - siyosiy va madaniy hayoti to'g'risidagi tushuncha - tasavvurlarini yanada boyitdi. Bu safarida Ahmad Donish Rossiya hukumatining baland martabali chinovniklari bilan

¹ Muiniy R.Ahmad Donish hayoti haqida. Buxoro, 2007.–B.28-33.

munosabatlarda bo'ldi. Rossiya tashqi ishlar vazirligining mas'ul xodimi Kozimbek bilan yaqin aloqada bo'lib ko'p masalalarda hamfikrlilik tuyg'ularining birligini izhor qilishdi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Ahmad Donish ham o'zining sog'lom ijtimoiy - siyosiy, falsafiy va ilmiy qarashlari bilan Rossiya davlatining amaldorlariga taassurot qoldirdi. Ular Ahmad Donishning adabiyot, tarix, falsafa, tabiiy fanlar, xususan siyosatshunoslikda chuqur bilim va katta iqtidor egasi ekanligini ko'rib, unga nisbatan katta izzat - hurmat ko'rsatganlar, bu narsa Buxoro amirligi hukmron doiralari vakillarining ham buyuk allomaga nisbatan munosabatda tubdan o'zgarish yasagan. Buxoro amiri ma'muriyati Ahmad Donishning Rossiyadek kuchli davlat apparati xodimlarining mulozamatini ko'rib unga hayrat bilan qaraganlar.

Buxoro amiri Ahmad Donish Peterburgdan qaytgach unga (markaziy hokimiyatdan) o'z saroyidan katta ma'muriy lavozimni egallashni taklif qilgan. Ahmad Donish shu narsani aniq tushunganki, mutloq hokimiyatchilik va hech qanday qonunlar bilan cheklanmagan, to'la huquqsizlikka asoslangan davlat apparatida tub islohotlarni amalga oshirmay turib hech narsaga erishib bo'lmaydi. Shuning uchun amir taklif etgan yuksak martaba va lavozimiga o'tirmaslik istagi alloma tabiatiga mos va xos edi, Donish amirga juda katta minnatdorchiliklar bildirib, oliy hukmdorning "marhamatidan" qutilishiga muvaffaq bo'ladi. Buxoroning zukko, aqli raso, bilimdon allomalari amir saroyini katta bir o'txona sifatida tasavvur qilganlar, unga tushgan kishining kuyib jizganak bo'lishi tabiiy deb hisoblab, unga yaqinlashmagan va shuning uchun bo'lsa kerak, Ahmad Donish ham amir saroyi uning joyi emasligini tushungan.

1873 yilning kuzida Buxoro amiri Peterburgga yana bir delegatsiya jo'natadi. Amir Muzaffarning elchilik vakillari rus qo'shinlarining Xiva xonligi ustidan qozongan galabasi bilan tabriklash, hamda Aleksandr II ning qizi Mariyaning ingliz shaxzodasi Alfred bilan bo'ladigan nikoh to'yiga katta sovg'a salomlar bilan yetib borgan edi. Delegatsiyaning boshlig'i Abduqodir Dodhoh bo'lib, Ahmad Donish uning birinchi o'rinbosari edi. Elchi - vakillar 1874 yilning

6 yanvarida Peterburgga yetib kelishdi va o'sha yilning fevraliga qadar Pyotr shahrida bo'lishdi.

Ahmad Donish va elchilikning boshqa vakillari to'y tantanalarida ishtirok etishdi, bu nikoh to'yi bazmi ham Peterburgda ham Moskvada o'tkazilgan edi, shu bilan birgalikda delegatsiya a'zolari Rossiya davlat apparati chinovniklari bilan davlat ishlari yuzasidan muzokaralar olib borishdi. Shu safar endi Ahmad Donish me'morchilik muhandisligining bilimdoni bo'lganligi uchun Peterburg shahri me'moriy obidalari bilan chuqurroq qiziqib obdon o'rgandi. Ahmad Donish safar taassurotlarini maroq bilan o'zining "Abduqodir elchiligi va rus tantanali bayramlari bayoni" xotiralarida yozgan edi.

Ahmad Donish o'zining Rossiyaga qilgan uchinchi safarida rus jamiyatining ijtimoiy hayotiga katta e'tibor berdi. Safar chog'ida buyuk alloma rus xalqining kundalik hayotini diqqat bilan kuzatib, shunday xulosaga keldiki, rus jamiyati ham hamma yerda bo'lganidek alohida - alohida guruh va qatlamlardan iborat ekan, har bir guruh yoki ijtimoiy qatlamning o'zni ayricha ekan, birovlar rohat – farog'atda yashaydi jamiyatda o'zining imtiyozli o'rniga ega boshqa birovlar esa huquq va erkinlikka ega bo'lmagan, jabr - zulm ostida mutloq qashshoqlikda umrguzaronlik qiladilar¹.

Ahmad Donish o'zining Rossiyaga qilgan safarlarida Rossiya ijtimoiy hayotining turli vakillari bilan uchrashishga muvaffaq bo'lgan. U o'zining birinchi safarida rus sharqshunosi, Rossiya tashqi ishlar vazirligining chegara komissiyasining raisi V.V.Grigorev bilan, 1869-yilgi ikkinchi safarida rus adabiyotchilari va shoirlarning maslakdoshi P.I.Pashino bilan uchrashuvi uning tarixchi va adabiyotchi sifatida yetuk olim hamda ijodkor ekanligini ko'rsatibgina qolmay, balki shunday kishilar bilan muloqotda bo'lish salohiyatiga ham ega ekan. Boshqa bir davlatdagi, nisbatan rivojlangan mamlakatdagi rasmiy uchrashuvlar, Rossiyaning ijtimoiy - siyosiy hayotini Buxoro amirligidagi ijtimoiy - siyosiy hayot bilan qiyoslash va shu asosda xulosalar chiqarish samarasi o'laroq 1875-yilda "Madaniyat va o'zaro ko'maklashish tartibi haqida risola" traktati yaratildi va

¹ Muiniy R.Ahmad Donish hayoti haqida. Buxoro, 2007.–B.34-35.

buni olim amir Muzaffarga (1860 - 1885 yil) taqdim etdi. Ahmad Donish yozib taqdim etgan bu risola bilan hali tanish bo'lmagan amir Muzaffar davlat apparatida unga katta lavozim taklif qiladi. Bu haqda yuqorida ham aytib o'tilgan edi. Ammo Ahmad Donish amirning olidiga shart qo'yadi. Agar amir davlatning siyosiy - ijtimoiy hayotida risolada bayon qilingan tub o'zgarishlarni amalga oshirgan taqdirda, u taklif etilgan mansabni egallashga rozi bo'lajagini bildiradi. Amir Ahmad Donish traktati mazmuni bilan tanishgach, nihoyatda g'azablanib o'zining yaqinlariga: "Men uni elchilar tarkibiga kiritib Rossiyaga yubordim. U bo'lsa menga aql o'rgatmoqchi. Men uni boshqa yubormayman", - deb zarda qilgan edi¹.

Amir bilan munosabatlari yomonlashgan Ahmad Donish saroydagi xizmatdan ketadi, bir necha vaqt ilmiy ish bilan mashg'ul bo'ldi, yozayotgan ishlarini tartibga keltirdi, ijod bilan shug'ullandi, bir qator asarlarni chiroyli qilib ko'chirdi. Buxoro xalqi va shahardagi haqiqiy ahli ilmning juda katta hurmatiga sazovor bo'lgan alloma bunday vaqtda yakkalanish va zerikish nimaligini bilmadi. Buxoro amiri Ahmad Donishdek buyuk insonni shaharda ishsiz qoldirishning o'zi uning obrusiga putur etkazishni yaxshi tushunar, ikkinchidan juda katta islohotchilik g'oyalarga ega bo'lgan odamning Buxoroda yashashidan amirning o'zi qo'rqqar va uning boshqalarga ta'sir qilishi mumkinligini yaxshi anglar edi. Ahmad Donish amirning qo'ygan har bir qing'ir qadamini fosh qilishi mumkinligini hisobga olib uni 1882-yili G'uzor bekligiga qozi qilib yubordi. Bu bilan amir, avvalo, Ahmad Donishning buyuk xizmatlarini hisobga olib go'yoki uni rag'batlantirgan bo'ldi hamda o'zi uchun xavfli bo'lgan hech kimdan qo'rqmay mamlakat ijtimoiy - siyosiy, iqtisodiy hayotini tahlil qilib uni ilg'or fikrli kishilarga yetkazadigan kishini poytaxtdan uzoqlashtirishdek maqsadiga erishgan edi. 1885-yildan u Narpayning qozisi bo'lib ishladi. Jamiyatda ijtimoiy adolat o'rnatishning tolmas kurashchisi bo'lgan Ahmad Donish 1887-yilda bu vazifadan ham bo'shatilib, Jafar xo'ja kutubxonasining mudiri qilib tayinlandi va 1889-yilning kuziga kelib u yerdan ham ketdi. Ahmad Donish qayerda ishlamasin

¹ Toshqulov D. Donish M. 1990, -B.83.

qaysi lavozimda bo'lmasin, ilm-fan ahliga homiylik qildi, ma'rifatparvar insonlar bilan yaqinlashdi, eng oddiy kambag'al insonlarni himoya qildi.

Ahmad Donish nafaqat o'z davrining faol jamoatchisi, tabiiy ilmlar sohibi, balki juda mashhur falsafiy, tarixiy, asarlar muallifi hamdir. Ahmad Donish 16 ta kitobning muallifi hisoblanadi. Uning "Navodir ul-vaqoe" (Nodir voqealar), "Tarjimai aholi amironi Buxoro" (Buxoro amirlarining tarjimai hollari), "Meyori tadayyun", "Risola fi amal ar-hurra" (Globusdan foydalanish yo'llari), "Resolai dar nazmi tamaddun va taovun" (Madaniyat va o'zaro ko'maklashish tartibi haqida risola) asarlari xalqimiz ma'naviy merosining nodir namunalari hisoblanadi.

- "Nodir voqealar" yoki "Navodir-ul-vaqoe" – Ahmad Donishning muhim asarlaridan biri hisoblanib, unda so'z boshi, uch bob va xotimadan iborat siyosiy traktat ham bor.
- "Buxoroi Sharif amirlarining tarjimai holi" – ("Tarjimai holi amironi Buxoroi Sharif"). Bu kitob Donish umrining oxirgi yillarida yozilgan bo'lib, unda Buxoro amirligi siyosiy tuzumi yoritilgan.
- "Buyuk qonun" – ("Nomus-ul-a'zam") – islomdagi sunniylik va shialik oqimlarining farqi haqida.
- "Yulduzlar jilosi" – ("Manozir –ul-kavokib"). Bu asar astronomiyaga bag'ishlangan bo'lib, unda yulduzlarning ahamiyati, tabiat hodisalarining yuzaga kelishi, ularning sabablari yuzasidan bahs yuritiladi. Asar 1885-yilda yozilgan bo'lib, Donish uni do'stlaridan biriga bag'ishlagan.
- "Globusdan foydalanish haqida traktat" – ("Risola fi-a'mol-il-kura"). Safarlaridan birida Donishga rus olimi Stremouxov 2 ta globus hadya qilgan bo'lib, ulardan biri Yer, ikkinchisi Oy globusi edi. Donish ilmiy nuqtai nazardan bu ikki globusni tahlil qiladi.
- "Besh yulduz harakati" – ("Taoduli xamsai muxtaxayira"). Bu risolada besh yulduz: Utorid, Zuhro, Mirrix, Mushtariy, Zuhul nazarda tutilgan. Risola astrologiyaga bag'ishlangan va 5 yulduzning xosiyatlari sharhlab berilgan. Asar 1883-yili Ahmad Donish G'uzor viloyatiga badarg'a qilingan yil yozilgan.

- “Diyonat me’yori” – (“Me’yori-ut-tadayyun”). Donish bu asarda dinu-shariat talablari asosida ko‘pgina muhim ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-tarbiyaviy masalalarga to‘xtalib o‘tadi. Muallif bu asarni 1894-yilda yozib tugatgan.
- Ahmad Donish “Shialar va sunniylarni yarashtirish to‘g‘risida nasihat” – (Inrisolaist isloh miyoni she’a va sun”) degan qo‘lyozmaning ham muallifidir. Bu asar uning diniy dunyoqarashga munosabatini belgilab berishda alohida ahamiyatga egadir. Ahmad Donishning 1894-yilda yozilgan bu asari O‘rta Osiyo falsafiy tafakkuri tarixi haqida ma’lumot beradigan qimmatli material hisoblanadi.
- “Ahmad Kallaning barcha tarixiy va falsafiy asarlari” – (“Majmuai hikoyati Ahmadi Kalla”). 1887-yilgi qo‘lyozma boshqa bir xattot tomonidan 1902-yilda shu nom bilan ko‘chirilgan.

Ahmad Donishni o‘zbek qabilalarining tarixi masalalari ham qiziqtirar edi. U o‘z xatlarida 92 ta turli xil o‘zbek qabilalarining hayoti va tarixiga oid ma’lumotlar to‘plaganini yozib qoldirgan.

Bugungi kunda Donishning astronomiyaga oid quyidagi asarlari ma’lum: “Yulduzlar jilosi” – (“Manozir-ul-kavokib”), “Globusdan foydalanish haqida risola” – (“Risola-fi-a’mol-il-kura”), “Tanlangan qonunlar” – (“Muntaxab-ul-ahqom”), “Joylarning uzunligi va enini o‘lchash” – (“Istig‘roji bul va arzi balat”).

Keyingi yillarda olimlar “Hikoyalar to‘plami” – (“Jome’-ul-hikoyat”), “Diyonat me’yori” – (“Me’yor-ut-tadayyun”) asarlari ham unga tegishli ekanligini aniqladilar. “Hikoyalar to‘plami” biografik xarakterga ega bo‘lib, Donish hayotini o‘rganishda katta ahamiyatga ega.

Ahmad Donishning hayoti, ijodi va ijtimoiy-siyosiy faoliyati o‘z davrida ham vafotidan so‘ng ham har qanday sog‘lom fikrli kishilar diqqatini o‘ziga jalb etgan. Ahmad Donish filologlar, tarixchilar, falakiyotshunoslar va umuman ilm-fan ahli uchun hayratlanarli darajadagi shaxs bo‘lgan.

II.BOB Ahmad Donish asarlarida Buxoro amirligi tarixi masalalari.

2.1.Ahmad Donishning tarixiy asarlari.

Bugungi kunda O`rta Osiyo va xususan, Buxoro amirligining Chor hukumati tomonidan mustamlakaga aylantirilishi tarixini o`zida aks ettirgan mahalliy muarrixlar tomonidan yozilgan bir qator asarlar mavjud. Jumladan, Mirza Abdulazim Somiyning "Mang`it hukmdorlari tarixi", Mirza Salimbekning "Tarixi Salimiy", S.M.Olimiyning "Buxoro - Turkiston beshigi", Ahmad Donishning "Navodir ul-vaqoe" (Nodir voqealar) va "Buxoro mang`it amirlarining muxtasar tarixi" va boshqa bir qator asar mavjud.

Mazkur manbalar ichida eng yirigi Ahmad Donishning "Navodir ul-vaqoi" (Nodir voqealar) asaridir. Ushbu asarda muallif o`zidan oldin o`tgan faylasuflarning, birinchi navbatda Bedilning ba`zi falsafiy qarashlarini tahlil

qilgan. O'z zamonasining qo'ygan masalalarini hal qilishga intilgan¹. Ushbu asar ahamiyati jihatidan XI asrda yozilib saljuqiylar sulolasi tarixiga bag'ishlangan Nizomulmulkning "Siyosatnoma" asariga qiyoslash mumkin.

Asarning asosiy mazmunini – xalqni ma'rifatli bo'lishga chaqirish, insonparvarlik g'oyalarini targ'ib etish kabi g'oyalar tashkil etadi. "Navodir ul-vaqoe"ni o'z davrining entsiklopediyasi deb atasak mubolag'a bo'lmaydi².

Asar Ahmad Donish Peterbugga qilgan ikkinchi safaridan keyin 1868-1873 yillar oralig'ida yozilgan. Ammo Buxoroda bosmaxona mavjud bo'lmagani uchun chop etilmagan³. Kitob yozilishi davomida tartibga solinmay uning ayrim sahifalarini yaqinlariga o'qishga bergan.

Bu haqida o'zi shunday deydi: "Zamona ahlining qilgan ishlari, ularning harakatlari menga yoqmas edi. Juda ko'nglim olinib, yuragim torayib ketganda qayg'u alamlarimni chiqarish uchun do'stlarim yoniga qalam olib borib, qog'oz yuzini qoralash bilan shug'ullanardim. Mening mijozimni bilganlar shu yozilgan tarqoq varaqlarni tartibga keltirishgan, hikoyalarni ko'rib: o'z yozganlaringni boshqalarning so'zlaridan ajratib, bir to'plam kitob holiga keltirgin"⁴, deganlarini bayon etadi.

Ushbu asarning yozilish sanasi va boblari to'g'risida turli fikrlar mavjud. "Navodir ul-vaqoe"ning kirish – "Ahmad Donish va uning "Navodir ul-vaqoe" asari haqida" qismida aytilishicha, asar 13 bobdan iborat deyiladi. Andijon Davlat Universiteti tadqiqotchilari Arofat Abdullaeva, Xurshid Xolmirzaevlarning "Navodir ul-vaqoe" o'zbek tilida" nomli Ahmad Donish tavalludining 180 yilligi munosabati bilan o'tkazilgan anjumandagi ma'ruzalarida asar 22 bobdan iborat bo'lib, 1875-1882 yillarda yozilgan⁵ deyiladi. Ushbu asar muqaddima, 3 fasl(qism) va xotimadan iborat.

¹A.Donish .Navodir ul-vaqoe /fors-tojikchadan A.Hamroeva va A.Shokirov tarjimas. T.: Fan,1964 – B.14.

²Abdullaev V., Inomov M., Abdurahmonov SH. "Navodir ul-vaqoe"dagi g'oyalar va zamonamiz. /Ahmad Donish-XIX asrning buyuk mutafakkiri va taraqqiyparvari. Buxoro, 2007.-B.70.

³Muiniy R.Ahmad Donish hayoti haqida. Buxoro, 2004. –B.8.

⁴A.Donish . Navodir ul-vaqoe. T.: Fan 1964. –B.34-35.

⁵Abdullaeva A., Xolmirzayev X. "Navodir ul-vaqoe"o'zbek tilida. /Ahmad Donish-XIX asrning buyuk mutafakkiri va taraqqiyparvari. Buxoro, 2007.-B.6.

1-faslda amirlik va raislikning fazilati hamda podshohlar va davlat arboblarning xalq bilan qanday muomala qilishlari haqida.

2-faslda amirlarning askarlar bilan hamda davlat arboblari, hukumat xizmatkorlari qanday yo`l-yo`riq tutishlari haqida

3-faslda podshohlarning elni idora qilishlari, xalqparvar bo`lishlari, o`z qo`l ostidagi fuqarolarning ehtiyojlarini qanoatlanarlik darajada chiqarib tutishlari haqida.

Xulosa qismida esa Buxoro amirligidagi mavjud tuzum haqida fikr yuritilgan

Mazkur asar boblari alohida-alohida masalalarni o`z ichiga olgan. Jumladan, VII bobi A. Donishning 1869-yilgi Rossiya safariga bag`ishlangan va 1957-yilda chop etilgan. VIII bob podshoh Aleksandr II ning qizi Mariyaning 1874 yilda bo`lgan nikoh to`yiga yuborilgan elchi Abdulqodirbek safari haqida. Qolgan boblari xilma-xil mavzularga bag`ishlangan.

Masalan, ota-ona va farzand munosabatlari (1-bob), mol-dunyo (2-bob), tarix (3-bob), olim va johil taqdiri (4-bob), vaqt qadri (5-bob), safar qilish foydalari (8-bob), ilm-fan manfaati (9-bob), haqiqiy va majoziy ishq hamda uning odobi (10-bob), nikoh (11-bob), taqdir (12-bob), kasb-kor (13-bob), jism va ruh (14-bob), yer tuzilishi va ma`danlar (16-bob), tush ta`biri (19-bob), Bedil baytlari (20-bob), ayrim hadislar talqini (22-bob), inson axloqini belgilash (23-bob) kabi. Tamaddun haqidagi risolasi (15-bob) va xilma-xil voqeyiy hikoyalar (18, 21-boblar) ham asardan joy olgan. Ularning har biri ham muhim va qiziqarlidir.

"Navodir ul-vaqoe"ning Dushanbe shahridagi "Donish" nashriyotida 1988, 1989-yillarda chop etilgan 2 kitobida jami 360 ga yaqin she`riy matn mavjud. Ammo bu she`riy matnlarning barchasi ham Ahmad Donishga tegishli emas. Xususan, Ahmad Donish asarning ushbu nusxasida bir o`rinda: "Pesh az manu tu ba ruxi chanho kashidaand tug`roi nekbaxtiul nili badaxtari" deydi.

Baytni xayoliga g'ayb kuchi bilan daf'atan kelib qolganini va bir necha muddatdan keyin bu baytni Sa'diy Sheroziyning qasidasidan topganini bayon qiladi¹.

Asarning yuqorida aytilgan nusxasining tanqidiy matnini tayyorlagan mas'ul muharrirlardan biri Aliqul Devonaqulovning ma'lumot berishicha, uch qo'lyozma asosida tayyorlangan. Bulardan biri – B-716 raqami ostida saqlanayotgan kitob bo'lib, 1881-yilda Ahmad Donishning o'z qo'li bilan ko'chirilgan bo'lib, ilmiy tanqidiy matnni tayyorlashda shu nusxaga tayanilgan.

Qolgan ikkitasidan qiyoslash to'ldirish maqsadida foydalanilgan. Bulardan biri 1908-yilda Sadri Ziyoning topshirig'i bilan Abdulvohid Munzim tomonidan ko'chirilgan va bugungi kunda №2012 raqami ostida Dushanbeda saqlanmoqda. Aliqul Devonaqulovning aytishicha, bu nusxa Ahmad Donishning o'z qo'li bilan ko'chirilgan kitobidan jiddiy farq qilmaydi.

Keyingisi Mirzo Qamar va Habibullo Maxdum tomonidan 1936 yilda kitobat qilingan. Dushanbeda saqlanayotgan bu nusxaning sifati Munzim ko'chirgan kitobdan past bo'lsada, "Navodir ul-vaqoe"ning mavjud 6 ta nusxasidan ko'ra yaxshiroqdir. Ahmad Donishning ushbu "Navodir ul-vaqoe" asarida nafaqat o'z davri balki bugungi kun uchun ham e'tiborli bo'lgan bir qator masalalar xususida so'z yuritiladi.

Ahmad Donishning ushbu asari haqida Sadridin Ayniy "Esdaliklar"ining 7-jildida (4-qismi) bir qator ma'lumotlarni ko'rishimiz mumkin. Ushbu jildda Ahmad Donishning yirik asari "Navodir ul-vaqoe" bilan birinchi tanishuvim deb atalgan qismi to'liq mazkur asarga bag'ishlanadi. Muallifning ta'kidlashicha, "Navodir ul-vaqoe" asari borligini hamma bilsada, uning kimning qo'lida ekanligini hech kim bilmasdi. Keyinchalik ma'lum bo'lishicha, Ahmad Donish hayotligi davrida bu kitobning o'z qo'li bilan yozilgan nusxasini Siddiqxon bilan maxfiy aloqa bog'lab, nusxa ko'chirish uchun u kitobni omonat olgan va ko'chirishni xushxat mirzo Abdulvohid Munzimga topshirgan.

¹Afoqova N. "Navodir ul-vaqoe" tarkibidagi she'riy matnlarga oid dastlabki kuzatishlar./Qomusiy mutafakkir. Buxoro, 2007. - B.23.

Sadriddin Ayniy Ahmad Donishning badiiy til va uslub sohasidagi eng yaxshi anʼanalarini oʻzlashtirib olishga va rivojlantirishga intiladi. Ayniy bu haqda shunday deydi: "Navodir ul-vaqoe" kitobini dastlab koʻrganim va oʻqiganimda menga taʼsir qilgan joylari juda koʻp edi... "Navodir ul-vaqoe" bilan tanishuvim menga inqilobiy fikrlarni uygʻotibgina qolmay, balki nasrnavis boʻlsaydim, nasrnavislik muyassar boʻlganida ham Ahmad Mahdum kabi voqealarni oʻquvchilarga sodda tilda gavdalantirib koʻrsata oladigan nasrnavis boʻlsam edi, deb orzu qilardim. Sodda tilda yozish bobida Ahmad Mahdumdan oʻtib ketish fikrida boʻldim"¹. Bu esa uning ustoziga chuqur hurmati va munosib shogird ekanligini koʻrsatadi.

Ahmad Donish Buxoro amirligi va unda hukmdor boʻlgan amirlarning tarixi masalalariga alohida eʼtibor qaratgan. Ahmad Donishning "Buxoro mangʻit amirlarining muxtasar tarixi" va boshqa bir qator asar mavjud. Asar shubhasiz Buxorodagi mangʻitlar hukmronligi tarixini oʻrganishda muhim manba hisoblanadi.

Asarda asosan soʻnggi mangʻit hukmdorlari tarixi yoritiladi. Muallif bu sulolaning taxtdan ketishini masʼuliyatsizlik deb izohlaydi. Asarda asosiy eʼtibor amir Muzaffar va Amir Abdulahad hukmronligi davrining boshlanishiga qaratilgan. Muallif bevosita oʻzi guvoh boʻlgan voqealarini bayon etadi. Chor Rossiyasi tomonidan Oʻrta Osiyo va asosan Jizzax va Samarqandning egallanishi kabi masalalarni asarda alohida yoritishga eʼtibor qaratiladi.

Mazkur manbani shartli ravishda ikki qismga boʻlish mumkin. Birinchi qismda muallif faqat yozma manbalarda mavjud boʻlgan va oʻzi eshitgan voqealarni bayon etgan. Unda Amir Doniyol hukmronligining soʻnggi yillari va uch amir Shohmurod, Haydar, Nasrulloxon haqida bayon etiladi². Ammo Donish maʼlumotlarni berishda aniq bir manbaga tayanib qolmagan. U oʻz asarining ushbu qismida faqat ikkita manbani koʻrsatib oʻtgan. Bular "Tuzuki Temuriy" va "Ravzat as-safo"lardir.

¹ Vohidov R. Mahmudov M. Ustod Sadriddin Ayniy saboqlari. T.: Fan, 2004, -B.297

² А.Дониш. История мангитской династии.Д.:Дониш 1967,-С. 4.

Birinchi manba uni komil hukmdor namunasi mavjud bo`lgan asar sifatida qiziqtirgan. U risolaning kirish qismida (asarning) ushbu manba haqida quyidagi fikrni bildiradi. "Amir Temur Ko`ragoniy 800 yillikni yangilagan hukmdordir. Kimki buni aniqlashtirishni xoxlasa, "Amir tuzuklari"ga murojaat qilishi mumkin¹."Ravzat as-safo" esa asarning faqat bir o`rnida aytib o`tildi.

Asarning ikkinchi qismida esa, Ahmad Donish o`zi ko`rgan tarixiy voqealarni asosan Amir Muzaffar va Amir Abdulahad davri voqealarini aks ettirgan. Ahmad Donish ushbu asarni yozishda "Tuhfat ul-foniy", "Gulshan ul-mulk", "Mirzo Shams Buxoriy yozishmalari" kabi bir qator mahalliy tarixnavislarning asarlaridan foydalangan bo`lishi mumkin. Mazkur manbalardagi ma`lumotlar Ahmad Donish asaridagi voqealarga mutanosib.

Asarda Ahmad Donish o`zining adolatparvar hukmdor haqidagi qarashlari bilan birga mang`it amirlarini tanqid qiluvchi fikrlarni ham bildirib, hukmdorlarning cheklanmagan hokimiyatiga qarshi chiqqan. Uning fikricha, "Haqiqiy hukmdor odobli, e`tiborli, kamtar, yeyishda, ovqatlanishda va hayotda parhezkor bo`lishi darkor" degan.

Asarning ikkinchi qismi birinchi qismiga nisbatan ma`lumotlarning kengligi va yorqinligi bilan farqlanadi. Masalan, u Amir Muzaffarning taxtga kelishi haqida quyidagi fikrlarni bildirgan: "Amir Muzaffar taxtga o`rnashib olgandan keyin unga qarshilik ko`rsatishi mumkin bo`lgan har qanday shaxsga nisbatan shafqatsiz siyosat olib bordi. Hattoki, Nasrulloxonning nabirasi ham Buxorodan qochib yashirinishga majbur bo`ldi. Qo`shin va xalq amirning ushbu ishlaridan norozi edi"². Ahmad Donishning ushbu fikrlaridan ma`lumki, u o`z asarini yaratishda o`z davrining boshqa tarixnavislaridan farqli o`laroq xolisona, tanqidiy yondashgan.

Asar o`zi yozilgan davrdan ancha kechroq tarix ilmi ommasiga ma`lum bo`lgan. Unga qadar esa asar haqidagi ma`lumotni biror manbada uchratmaymiz. Hattoki, Ahmad Donishning eng yaqin shogirdi Sadriddin Ayniy ham ushbu asar

¹ А.Дониш. История мангитской династии.Д.:Дониш 1967,-С. 5.

² А.Дониш. История мангитской династии.Д.:Дониш 1967,-С. 14.

haqida ma'lumot bermagan. Faqatgina 1936-yilda u E.E.Bertels birinchilardan bo'lib, Ahmad Donishning noma'lum asarining qo'lyozmasini aniqlaganligini ma'lum qilib, uni "Risola" deb nomlaydi. 1946-yilda S.U.Ulug'zoda asarning qisqacha mazmunini xalqqa ma'lum qildi.

Ushbu asarning boshqa qo'lyozma nusxalari ham mavjud. 1959-yilda Xodizoda tomonidan tayyorlangan tojik tilidagi birinchi nusxasi chop etildi. Ushbu asar qisqartmalar bilan berilgan. 1960-yilda A.M.Mirzoev tomonidan asarning 5 ta qo'lyozma nusxasi asosida tanqidiy matni nashrdan chiqdi. Ikkinchi nashr birinchi nashridan hajm jihatidan ancha farq qiladi. Tanqidiy matnda bir qator yangi qiziqarli ma'lumotlar ham mavjud. Masalan, kirish qismi Ahmad Donishning tarixchi sifatidagi faoliyatini o'rganishga ko'mak beradi.

Qolaversa, ushbu tanqidiy matnda XIX asrning ikkinchi yarmida Qo'qondagi Xitoy qipchoqlarning qo'zg'oloni haqidagi yangi ma'lumotlar ham berilgan. 1960-yilda M.N.Usmonov ushbu asarni birinchi marta ruschaga "Tarixiy traktad" nomi bilan tarjima qildi.

Ahmad Donish ijodini o'rganish bo'yicha yirik mutaxassis Z.Rajabov quyidagi fikrlarni bildiradi: "Ahmad Donish tojik xalqining ko'zga ko'ringan namoyondasidir. Uning ijodi har tomonlama chuqur o'rganishga munosib. Bu vazifani faqatgina bitta muallif hal qila olmaydi". Asar keyinchalik Xodizoda tomonidan "Tarixiy va tanqidiy traktat" nomi berildi.

1960-yilda o'zi yaratgan tanqidiy matnning kirish qismida quyidagi fikrlarni bildiradi: "Mavjud 5 ta qo'lyozma nusxasining birortasi muallif o'zi nom bermagan. Sarlavhalar faqat hattotlar tomonidan kiritilgan. Hattotlardan biri uni "Kichik tarix", boshqasi esa "Saxovatli Buxoro amirlarining hayot yo'li" deb nomlaydi". Bularning barini o'rganib chiqqan A.M.Mirzaev "Risola yoki Buxoro mang'it amirlarining muxtasar tarixi" nomiga to'xtaydi. Asar muallif umrining oxirida 1895 - 1897 yilda yozilgan.

Asarning ikkinchi qismida Amir Muzaffar va Amir Abdulahad hukmronligi masalalari bilan birga Chor Rossiyasi bosqini haqida ham ma'lumotlar mavjud.

Ahmad Donish o'zi qayd etgan ma'lumotlarga tanqidiy yondashganini ko'rishimiz mumkin. Zotan, u aytgan fikrlar boshqa mualliflarning asarlari bilan mutanosib kelmaydi. Xususan, Amir Abdulahad hukmronligi haqida shunday deyiladi: "otasi Amir Muzaffar vafotidan keyin echki burji payti Venera sayyorasi chiqqan paytda taxtga o'tirdi. Bunday yulduzlar joylashuvi davrida taxtga o'tirgan hukmdor uzoq va mustahkam o'tirishini munajjimlar bashorat qildi. Hukmronligining birinchi, ikkinchi yilida Venera va Quyosh sayyoralari o'rtasida do'stlik aloqalari bo'lganligi tufayli bu yerda shariat va din qonunlari tarqalishini ta'minladi".

Muallif tomonidan bu kabi fikrlar aytilishi, uning o'z davrining buyuk astronomi va astrologi ekanligini isbotlaydi. Abdulahad hukmronligiga ta'rif berib: "Otasi hukmronligiga qaraganda uning davrida sozandalik, maishatbozlik avj oldi. Davlat ishlarini olib borishda o'sha davr aql egalari bilan emas, maishatparast amaldorlar bilan kengashdi. Ilmiy ishlarni qozi kalonga topshirib qo'ydi. Harbiy sarkarda va amaldorlarni saylashni Durbiy qushbegiga topshirdi. Butun Buxoroda vazirlik vazifani g'araz niyatli sobiq quli Shoh Mirzo ismli shaxsga topshiradi. Bunday vaziyatdan foydalangan rus amaldorlari esa o'z maqsadlari yo'lida davlat ishlariga aralasha boshladilar. Bunga qarshilik ko'rsatadigan hech qanday kuch yo'q edi.

Xuddi shu davr voqealar "Kashkuli Salimiy" asarida shunday baholanadi. "Otasi vafotidan keyin Karmana viloyatidan kelib Buxoro taxtiga ega bo'ldi. Butun ulamoyu-umaro (amaldor)lardan fuqarolarni osuda va xotirjam qildilar. Amir Abdulahad saltanati ayomida viloyatlar osoyishta va xotirjam edilar. Hech tarafdin lashkarlarning tozi-bozi yo'q edi"¹.

Bu ikki muallif bir davr voqeasida ikki xil yondashgan. Ahmad Donish bu voqealarni tanqidiy izohlasa, Mirzo Salimbek Amir Abdulahad hukmdorligini ijobiy baholashga intiladi. Ammo, o'sha davr shart-sharoiti nuqtai nazaridan yondashadigan bo'lsak, Buxoroda rus bosqini arafasidagi vaziyat ijobiy bo'lmagan va Ahmad Donish real baholagan deyish mumkin.

¹Mirzo Salimbek. Kashkuli Salimiy Buxoro, 2003. -B.303-204.

Asarda Rossiyaga elchilik safarlari haqida ham aytib o`tilgan. Qushbegi Ostonaqul boshchiligidagi elchilar Rossiyada bo`lishadi va ular o`zlari bilan birga rus podshosiga amir tomonidan yozilgan iltimosnomani ham olib borishadi. Bu voqealarni o`z ko`zi bilan ko`rgan muallif iltimosnoma matnini asarida ko`rsatadi.

"Oq podsho - Sizdan iltimosimiz shuki, men taxtga yaqinda o`tirganman. Mamlakat ishlarini yaxshiroq tushunib o`rganish uchun sharoit yaratib bering. Buxoroda suv tanqisligi bois dehqonlar ahvoli og'ir, Amudaryo va Sirdaryodan suv olib kelish kerak. Buning uchun yetarlicha zamonaviy texnologiyalar va harbiy sohada qo`shin askarlarning jang mahorati pastligi bois harbiylar kelib o`rgatib ketsin" kabi fikrlar bildirilgan edi¹. Tabiiyki, bu iltimosnoma shaklidagi xat rus hukmron doiralari tomonidan xursandchilik bilan kutib olindi.

Qolaversa, rus bosqinchilari tomonidan Toshkent, Buxoro istehkomi, Samarqand, Jizzaxning ishg'ol etilishi haqida yozilgan. Bu kurashda amir hech qanday bilimga ega bo`lmagan kishilarga tayanganini ko`rish mumkin.

"Amir g'ulomlaridan biri bo`lgan Yoqub Qo`shbegini, garchi u umri davomida miltiq ovozi eshitmagan va jang maydonini ko`rmagan bo`lsada, lashkarboshi etib tayinlashdi"².

Ahmad Donish turli tanqid va tazyiqlardan qo`rqmay ushbu ma`lumotlarni keltirishi uning mazkur davrdagi tarixni o`z holicha bayon qilganligi bilan xarakterlanadi. Mustaqillik sharofati tufayli bu kabi yurtdoshlarimizning o`lmas tarixiy merosi xalqimizga qaytarildi va tariximizning noma`lum sahifalari ochildi. Bizning vazifamiz esa bu kabi asarlarni tadqiq etib mamlakatimiz tarixini ochilmagan sahifalarni o`rganishdan iboratdir.

¹А.Дониш. История мангитской династии.Д.:Дониш 1968,-С.115.

²Tosheva Sh..Ahmad Donish va uning tarixiy risolasi.// Buxoro mavjlar.Buxoro, 2007.№3, -B.37.

2.2. Ahmad Donishning ilmiy merosida davlat boshqaruvi masalalari.

Milliy davlatchilik tushunchasi va uning tarixi o'lkamiz xalqlari singari qadimiylidir. Vatanimizning davlat arboblari, siyosatshunos, jamiyatshunos olimlari, faylasuf - huquqshunoslari va tarixchilar davlatchilik tamoyillarini nazariy - ilmiy jihatdan yaratib, boyitib kelganlar, uning amaliyoti to'g'risida juda qimmatli bo'lgan davlatchilik ustunlari sifatidagi tavsiyalarni yaratganlar.

Adolatli, hukmdor, xalq manfaatlari himoyachisi bo'lishning jahonda eng namunaviy timsollarini yaratganlar. Bular A.Forobiyning "Fozil shahar odamlari", Nizomulmulkning "Siyosatnoma", Amir Temurning "Tuzuklari"da, Alisher Navoiyning odil shohlar to'g'risidagi orzulari bayon etilgan, o'lmas asarlarida o'z aksini topgan. O'zbekiston tarixi shundan guvohlik beradiki, davlatchilik tushunchasi va nazariyasini yaratish, boyitish, uni eng yuksak darajaga ko'tarish tamoyili hamma zamonlarda izchil davom etgan. Davlatchilikning nazariy asoslarini barcha davrlarda o'z zamonasiga mos holda rivojlanib borgan.

Ahmad Donish ham Farobiy va Nizomulmulkdek, Amir Temur va A.Navoiy singari odil shoh va adolatparvar hukmdor qanday bo'lishi kerakligini o'z asarlarida ta'kidlab o'tgan bo'lsa-da, uning "Madaniyat va o'zaro ko'maklashish tartibi haqidagi risola"si davlatchilik va uning tamoyillariga, oliy hukmdorning qanday xislatlar egasi bo'lishi haqida yozilgan maxsus asardir.

Podshohni Ahmad Donish aholining xizmatkori deb hisoblaydi: "Darhaqiqat, podshoh aholining mardikori va xizmatkoridir, chunonchi agar o'g'rilar va yovuzlar ko'payib, ularning xavfi kuchaysa, qishloq aholisi biron shaxsni qorovullik va posbonlik xizmatiga yollaydi, uning kechalari jonbozlik qilib, tun bo'yi uxlamay, dushman xavfini daf etgani uchun unga oziq-ovqat

beradi, xuddi shunga o'xshash aholi, "bizga qarashgin, suvimizni yetkaz, yo'llarimizni qaroqchilardan tozala, toki biz farog'atda bo'laylik, agar sen beg'am o'tirsang, bizga farog'at bo'lmaydi", deb podshohga o'lpon, xiroj, zakot beradi.¹

Mazkur davrda Buxoroda davlat rahbari amir bo'lib, u cheklanmagan hokimiyat va huquqlarga ega edi. Rus tarixchisi A.A.Semyonov u haqda amirning hokimiyatning to'liq egasi ekanligi va cheklanmagan huquqlarga ega ekanligi, mamlakatda ma'muriyat va qozilardan jabr ko'rganlarga beriladigan jazoning yakkayu yagona hokimi ekanligi, hamda xalq boshiga keladigan barcha jabru jafolarning asosiy manbasi ekanligi to'g'risida yozgan. Amir, shuningdek, o'z mamlakatining ma'naviy hukmdori ham bo'lib, bu to'g'rida D.N.Logofet: "o'z davlatining ma'naviy boshlig'i, mahalliy musulmon qonunshunoslari e'tirof etgan Muhammad Payg'ambarning ishini davom ettiruvchi, musulmonlik sofligini himoya qiluvchi xalifa", - deb yozadi². Shu bilan birgalikda, Buxoro amiri o'z qo'li ostidagi barchaning ham mulkiy, ham jismoniy, ham ma'naviy xo'jasi edi. Tarixchining yozishicha, amir, cho'pon o'z boquvidagi xohlagan qo'yni olib so'yishi mumkin bo'lganidek, amir aholining o'zi xohlagan a'zosi taqdirini hal qilishi mumkin edi.

Ahmad Donish o'z asarlarida davlat boshqaruvi tizimi masalalari xususida qarash va fikrlarini bildiradi. U davlatni boshqarishni bir kishiga topshirib bo'lmaydi, degan xulosaga keladi. "Sulton bo'lsin, - deydi Donish, - albatta har bir tabaqadan vakili bo'lsin, har bir kattaroq, muhimroq ish uchun har qavmda yig'ilish qilsin. Dorulmashvarat tayinlasin, unga munosib vakil bo'lsin. Har kuni tabaqalar vakillari to'planib mamlakat ishlari, iqtisodiyoti, obodonchiligi haqida yig'ilish qilsinlar. Har bir ishning yaxshi yomon tomonlarini maslahatlashib, bir fikrga kelsinlar"³.

Ahmad Donishning ushbu fikrlari o'sha zamon va sharoit uchun ilg'or fikrlar edi. Ahmad Donish birinchilardan bo'lib davlat qonunlarini ilohiyot bilan

¹ Sadriddin Ayniy. Tanlangan asarlar. T.4. –T.:Badiiy adabiyot, 1966. – B.163.

² Toshqulov D. Donish. M.199.-B. 74.

³ A.Donish . Navodir ul-vaqoe T.: Fan 1964. - B.108.

emas, aql va tajriba bilan bog'laydi ¹. U "Davlat va aql bir-biridan ajralmas. Agar davlat qonun-qoidalarini aql tamoyillariga mos holda tuzilmasa, bunday davlatdan yaxshilik kutib bo'lmaydi"² deb ham ta'kidlaydi.

Ahmad Donish bildirgan ushbu fikrlar Kaykovusning "Qobusnoma" asaridagi fikrlarga mos keladi. Xususan "Har ish qilsang, aql farmoni bila qilgil va aqldan bemaslahat ish qilmagil. Nedinkim, podshohning vazirlari aqlidir. Hamisha lutf va karamni odat qilgil lekin siyosatlik bo'lgil" - degan fikrlarni aytadi. Ushbu ikki mutafakkirning ham fikrlari bugungi zamonamiz uchun xos bo'lgan asosiy masalalar hisoblanadi. Ahmad Donish o'zining ushbu g'oyalari orqali davlat boshqaruv apparatining samarali shaklini joriy etish kerakligini ta'kidlagan.

Ahmad Donish asarlarida hukmdorlar uchun o'ta muhim bo'lgan sifatlar haqida ham to'xtalib, quyidagi sifatlar ular uchun zarur deb aytadi:.

1. "Hamma yaxshiliklarning negizi aqldandur" degan fikrni bildirib, davlat boshqaruvlari kuchli aql sohiblari bo'lishi kerak deb qayd etadi.
2. "Podshoh bir buloqqa o'xshaydi. Boshqalar esa shu buloqdan chiqqan ariqchalardir. Agar shu buloqning suvi shirin bo'lsa, undan chiqqan ariqchalarning suvi shirin bo'ladi. Agar achchiq bo'lsa ular ham achchiq. Shunga o'xshash xalq ham har ishda podshohlarga qaraydir" - degan fikrni bildiradi. Ya'ni bu bilan xalqni boshqaradigan shaxs boshqalarga o'rnak bo'ladigan, adl-ehsonlik, yaxshi axloqli bo'lishi lozim, degan ma'no uqtirilgan.
3. "Podshoh faqat o'zining adolatlilik bilan qanoat qilmasin, butun mamlakatning arboblari va xizmatchilarini unga undasin"³ - ya'ni davlat boshlig'i bo'lgan shaxs faqat qonunlar yaratibgina qolmay, balki uning ijrosini nazorat qilish, barcha amallarini unga bo'ysunishga undashi lozim deyiladi.

Ahmad Donish jamiyat taraqqiyotida muhim sanalgan 5 asosni sanab o'tadi. "Birinchi, kuchli hamda odil podshoh bo'lishi kerak. Ikkinchi, amaldorlar va hokimlar insofli bo'lishlari lozim. Uchinchi, shaharda etarli hoziq va

¹Ahmedova Z. Ahmad Donish davlat boshqaruvi tizimi to'g'risida. //Falsafa va huquq-Toshkent, 2008. №4. -B.41.

² Kaykovus. Qobusnoma. T.:O'qituvchi, 2006.- B.142.

³Raupov.S Ahmad Donish va siyosiy yetakchilik muammosi./Ahmad Donish-XIX asrning buyuk mutafakkiri va taraqqiyparvari. Buxoro, 2007.-B.189-191.

tabiblar bo'lishi kerak. To'rtinchidan, shahar xalqi musofirparvar va g'aribsevar bo'lishi kerak. Beshinchidan, dunyodan chiqqan katta kichik ariqlardan oqqan suvlar mamlakat dehqonchiligi uchun yetarli darajada mo'l bo'lishi kerak"¹.

Ahmad Donishning hukmdorlik odobi va rahbarlik mas'uliyati haqidagi qarashlari yuqorida ta'kidlaganimiz "Risolai tamaddun dar nazmi tamaddun va taovun" nomli risolasida bayon etilgan. Bunda Ahmad Donish "hukmdor bo'lish - dunyoda eng faxrli ishlardan biri. Hukmdor o'zining barcha vazifalarini ilm va tajribaga tayangan holdagina uddalay olishi mumkin", - deya ta'kidlaydi. Shu bilan birga, alloma adolatli podshoh bo'lish uchun quyidagi o'n shart asosida ish olib borish kerakligini aytib o'tgan².

- Shoh o'z fuqarosining ishini ko'rib chiqayotganda o'zini o'sha fuqaroning o'rniga qo'yishi kerak. Uni esa o'z o'rnida tasavvur qilishi kerak. Har ikkala holatda qabul qilingan qaror ma'qul bo'ladi. Hukmdor o'zi uchun maqbul bo'lmagan narsa, boshqalar uchun ham nomaqbul hisoblanishi kerak. Aks holda u xoinlik qilgan bo'ladi;
- Shoh uning huzuriga u yoki bu tilak bilan kelgan kishilarni hech qachon kutib turishga majbur qilmasligi kerak. Chunki fuqarolarning tilaklari boshqa barcha ishlardan ustun turadi;
- Kamtarlik bo'lmasa, adolat bo'lmaydi. Dabdabali kiyinish va ovqatlanishdan saqlanish kerak;
- Shoh hukm e'lon qilayotganda muloyim bo'lishi kerak va qo'pollikka hech qanday asos bo'lmasligi shart. Har bir ishni ko'rib chiqayotganda ish yuzasidan barcha hujjatlar va dalillar chuqur tekshirib chiqilishi lozim. Ko'rib chiqilayotgan ishga doir guvohlarning ko'rsatmalarini sabr-toqat bilan eshitmoq darkor. Podshoh kuchsiz va qashshoh odamlar suhbatlashishdan uyalmasligi kerak;

¹ A.Donish Navodir ul-vaqoe T.: Fan,1964. –B.37.

² A.Donish. Navodir ul-vaqoe. T.: Fan 1964. -B.41-45., Muhammedjanov L.P., Raupov X. Ahmad Donish saltanatni adolatli boshqarishning o'n sharti xususida. /Ahmad Donish-XIX asrning buyuk mutafakkiri va taraqqiyparvari. Buxoro, 2007.-B.182-185.

- Shoh odamlar xohish-istaklaridan kelib chiqib, shariat qonunlariga zid bo'lgan harakat qilmasligi kerak. Shu bilan birga hukm e'lon qilinayotganda hukmdor bo'shliq, loqaydlik va ikkiyuzlamachilik qilmasligi shart. Agar hukmdor qarori adolatli bo'lsa, hukmdor norozi tomonning qaroridan qo'rqmasligi lozim;
- Shoh g'ururi, balandparvozlighi bilan o'z fuqarolarini o'zidan yiroqlashtirmasligi kerak. Aksincha, u otalarcha g'amxo'rliqi va mehribonligi bilan o'z fuqarolarining mehrini qozonishi kerak;
- Shoh mamlakat va hukumatning xavf-xatarga yo'liqishini unutmasligi kerak. Mamlakat hukmdori bo'lgan shaxs har qanday masalani hal qilishda haqiqat yo'lini tanlab olishi kerak, masala o'ta muhimmi yoki unchalik muhim emasmi, bundan qat'iy nazar, haqiqat va adolat nuqtai nazaridan ish tutishi kerak;
- Shoh hamma vaqt ma'naviy pok olimlar bilan hamsuhbat bo'lishi va ularning maslahatlariga quloq tutishi kerak;
- Shoh mansabdor shaxslarning xoinligi va fuqarolarni siquvga olishlaridan boxabar bo'lishi darkor. U hokimiyatni inson qiyofasidagi bo'rilarga ishonib topshirmasligi kerak;
- Shoh dimoqdorlik, takabburlik, manmanlik, bosar-tusarini bilmaslikdan saqlanishi kerak. U muloyim, kamtarin bo'lishi lozim. Lekin haddan oshiq ko'ngilchan, bosh bo'lmasligi kerak.

Ahmad Donish o'z asarida ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy islohotlar dasturi bilan birgalikda harbiy-strategik mulohazalarni ham bayon etadi. Jumladan, u amirga ushbu strategik va tashkiliy maslahatlarni beradi¹ :

- Dushmanni chalg'itish uchun sulton boshqa tomonga hujum qilib, haqiqiy raqibga qarshi urushga tayyor bo'lib turmog'i lozim;
- Urushgacha kerakli miqdorda qurol-yaroq tayyorlashi kerak. Askarlar barchasi mukofotlanib, yana mukofotlanishi kafolatlanadi;

¹ A.Donish. Navodir ul-vaqoe. T.: Fan 1964. - B.55-57., Shukurullayev Yu.Buxoro amirligida qo'shin va harbiy ishning Ahmad Donish va g'arb tarixshunosligidagi qiyosiy talqini./Ahmad Donish-XIX asrning buyuk mutafakkiri va taraqqiyparvari. Buxoro, 2007. -B. 156-160.

- O`z vaqtida jangchilar ehtiyoji ta'minlanadi;
- Agar bir daqiqa ham armiyada diqqatini chalg'itmasligi shart;
- Sarkardalar harbiy sinovlardan o'tgan bo'lishi kerak;
- Amir har kuni dushman ahvoli haqida ma'lumot olishi kerak;
- Urush vaqtida unchalik ko'p bo'lmagan aholi g'alabaga kafolat bera olmaydi;
- Intizom g'alaba garovidir;
- Shamol va do'l vaqtlarida harbiy harakatlar olib borish ma'qul emas;
- Dushmanga oxirigacha dam bermaslik zarur. Urush oxirida armiya darrov tarqatib yuborilmaydi.

Ahmad Donish risolasiining siyosiy va iqtisodiy islohotlar dasturi ham muhim g'oyaviy ahamiyat kasb etadi. Ahmad Donish amirning faqat huquqlari emas, balki burchlari ham borligini aytadi. Amirning shaxsiy sifatlari, siyosiy faoliyati, voqea-hodisa va narsalarga munosabatida odob-axloq normalari yaqqol ko'zga tashlanmog'i, uning faoliyati doimo adolatga asoslanmog'i lozimligini ham alohida ta'kidlagan.

Ahmad Donish davlat boshqaruvi masalalariga alohida to'xtalib o'tgan. Mazkur davrda Buxoro amirligining davlat boshqaruvi ma'muriy - moliyaviy, mirshablik sudi va harbiy ma'muriyatdan iborat edi.

Davlatning ma'muriy apparatini vazir boshqarar edi. Unga amirlikning farmoyish beruvchi va ijro etuvchi hokimiyati buysunar edi. Amirlik ma'muriyatining eng katta nufuzli va kuchli mansab egalari quyidagilardan iborat edi: devonbegi moliya - xazina ishlari, xarajatlar taqsimotchisi va soliqlarni yig'ish ustidan nazorat qiluvchi; zakotchi kalon - mulk va chorva mollaridan soliq yig'uvchi; qozi - kalon - (oliy sud) sud tizimi ishini boshqaruvchi; To'pchiboshi - Buxoro qo'shinlarining bosh qo'mondoni va to'plarni boshqaruvchi; mirshab - tungi shahar soqchilari boshlig'i, zindon (qamoqxona) qoloqxona boshlig'i. Buxoro amirligi bekliklarga bo'lingan va uning boshida beklar va tumanlar boshida amlokдорlar turishgan, bu mansabdorlar vazirning tavsiyasiga ko'ra oliy hukmdor tomonidan tayinlangan. Mansablar taqsimlanayotgan paytda nomzodning

oliy hukmdor va yirik markaziy - ma'muriy mansabdorlarga nisbatan urug' - aymoqchilik munosabatlari yoki bergan porasining miqdori inobatga olingan. Mansabdorlarga ish haqi davlat xazinasidan emas, balki egallab turgan mansabini suistemol qilib, aholidan yig'ib olinadigan to'lovlar hamda soliqlar hisobidan, o'rta asrchilikning jirkanch holati aholini talash yo'li bilan undirilgan daromad bo'lgan. Amirlikda esa bunday mansabdorlar ellik mingga yaqin bo'lgan¹.

Amirlik ijtimoiy - siyosiy hayotining huquqiy asosi shariat bo'lib, bunda alohida ishlab chiqilgani demokratik asoslardagi qonunlar bo'lmagan. Albatta, Buxoroning ijtimoiy - siyosiy hayotida islom dini ustivor asosga ega bo'lgan. Hurfikrlilik va islomiy mafkuraga bo'ysunmaslik qattiq jazoga mahkum etilgan. Shariat qonunlari asosan aholini itoatda tutish va davlat apparati barqarorligini ta'minlash uchun xizmat qilgan. Shubxasiz, amirlikda mullalar, eshonlar va shayxlar mavqei Buxoroning ijtimoiy - siyosiy hayotida alohida ahamiyat kasb etgan, Buxoro amirlari esa ular bilan hisoblashishga majbur bo'lgan. Buxoro ruhoniylari sud ishlarini, axloqiy va diniy hayot qonun qoidalarining bajarilishini nazorat qilganlar hamda shariat qonunlari asosidagi fatvolar to'g'risidagi talqinlarni ishlab chiqanlar.

Ahmad Donish avvalo davlatdagi feodal tuzumni tanqid ostiga oladi. Uning fikricha feodal tuzumni tubdan uchgartirish bu ijtimoiy taraqqiyot sari qilingan harakat sanaladi. Mazkur davr iqtisodiy hayotida mulkiy munosabatlar, xususan, yer egaligi, uning o'ziga xos xususiyatlari hattoki shariat qonunlari va huquqshunosligi ham shunga moslashtirilgan edi. Shuning uchun bo'lsa kerak Ahmad Donishning ijtimoiy - siyosiy qarashlarida ishlab chiqarishning ana shu munosabatlari bilan bog'liqlik alomatlari seziladi, ijtimoiy - siyosiy hayotni o'zgartirishning ma'rifatparvarlik va islohotlar o'tkazish yo'li bilan o'nglanib, rivojlanib ketishiga ishonch uchqunlari porlab turadi.

Buxoro amirligida yerga nisbatan mulkiy munosabatning uch shakli mavjud edi: amlok - davlat yerlari (dehqonchilik qilinadigan bu yerlarning 50 % amirga

¹ Temirov Sh.T. XIX asrning ikkinchi yarmida Buxoro amirligida ma'muriy boshqaruv va Ahmad Donish. /Ahmad Donish-XIX asrning buyuk mutafakkiri va taraqqiyparvari. Buxoro, 2007.-B.208-211.

qarashli edi); vaqf (masjid, madrasa va umuman ruhoniylarga qarashli bo'lgan umumiy yerlarning qariyb 25 % ni tashkil etadi) yerlari va mulk (xususiy yerlar bo'lib, bular amir tomonidan katta xizmatlari uchun, alohida shaxslarga in'om qilingan yerlar ham 25 % dan ko'proqni tashkil etar edi) dan iborat edi. Amirlikda yer mexnatkash dehqonlar kuchidan foydalanishning asosiy vositasi edi. Mehnatkash xalq amirlikdagi barcha yerlarni eng oddiy va deyarli ibtidoiy bo'lgan mehnat qurollari bilan qabohatli shartlarda ishlab berishga mahkum etilgan edi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, XIX asr Buxorosining iqtisodiy hayotida qishloq xo'jaligi ustivor ahamiyatga ega edi. Qishloq xo'jaligida esa sug'orish tarmoqlari hal qiluvchi omil edi, suv tarmoqlari va manbalari ham amir va yirik yer egalari mulki hisoblanar edi. Dehqon uchun, suvdan foydalanish ham yer singari uni qaramlikka tushirish vositalaridan biri edi.

Bu davr Buxorosida hunarmandchilik xo'jalik yuritishning muhim shakllaridan biri bo'lib, u ham dehqonchilik singari faqatgina qo'l mehnatiga asoslangan va aholini ezishning alohida bir yo'nalishi edi.

Buxoro amirligining ijtimoiy hayotida yirik yer egalari va kambag'al dehqonlar jamiyatning asosiy qatlamlari bo'lib, dehqonlar amirlik nufuzining 90 foizini tashkil etardi. Mehnatkash dehqonni nafaqat amir, balki yirik yer egalari ham shafqatsizlik bilan ezar edi. Ahmad Donish va Sadriddin Ayniylar yashagan bu zamonda dehqonlarga solinadigan to'lov va soliqlarning qariyb 50 xili mavjud edi. Bu haqda Sadriddin Ayniy: "Dehqon davlat solig'ini to'lash uchun barcha narsasini sotgan, ba'zan uzining qizi yoki o'g'lini sotishga majbur bo'lgan bunday holatlar ko'p bo'lgan" – deb ta'kidlaydi.

Aholidan olinadigan soliqlarning ko'payib borishi Rossiya istelosidan so'ng o'zining avj nuqtasiga chiqdi. Sadriddin Ayniy o'z "Esdaliklari" da bu haqda: "1868 yillargacha - Buxoro amiri bilan rus podshohi orasida tuzilgan sulhnomagacha, Buxoro muzofotining boshqa rayonlari kabi G'ijduvon rayonidagi amlok to'laydigan dehqonlar ham yer hosilining undan to'rt qismi, ya'ni qirq foizini podshohlikka berar ekanlar. Mazkur sulhnomadan keyin, rasman, ham yozilmagan qonun buzilmagan bo'lsa ham, amir Muzaffar Rossiyaga beradigan

urush tovonini bahona qilib, ma'murlarga imkon boricha dehqonlardan yer solig'ini ko'proq undirib olish to'g'risida og'zaki ko'rsatma bergan. Bu buyruqqa muvofiq ma'murlar dehqonlarning terisini shilishga kirishganlar¹ .

Ahmad Donish mamlakatdagi iqtisodiy va madaniy jihatdan rivojlanib borayotgan qoloqlikni – “davlat boshqaruvidagi hokimiyat uchun o'zaro kurashlar, adolatsiz rahbarlar tomonidan davlat sohalarining ko'p qismi boshqarilayotgani, davlatni idora etuvchi shaxslarning xalq manfaatini ko'zlab emas, balki shaxsiy manfaatlarini ko'zlab amalga oshirayotgan adolatsizlik harakatlaridadir” deb ta'kidlab o'tadi². Mamlakatdagi iqtisodiy, ijtimoiy qoloqdini faqatgina amirlik davlat tuzumini isloh qilish orqali amalga oshirish mumkinligi ham qayd etgan.

Ahmad Donish va uning ijtimoiy-siyosiy faoliyati, ilmiy me'rosi XIX asr ikkinchi yarmida Buxoro amirligi tarixini o'rganish, tadqiq etish uchun ahamiyatlidir. Amirlik aholisi va davlat boshqaruvidagi yutuq va kamchiliklarni o'z davrida qayd etgan olim ma'lumotlari bugungi kun tarixchilari, siyosatshunos va jamiyatshunoslari uchun muhim manba vazifasini bajaradi.

XULOSA

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlaridagi O'rta Osiyo mintaqasi ijtimoiy-siyosiy tarixi mamlakatimiz tarixining siyosiy voqealarga boy davr hisoblanadi. Mazkur davrda mintaqamiz jahon geosiyosiy maydonida muhim strategik xomashyo baza vazifasini bajardi. Hududda mavjud bo'lgan Buxoro

¹ Sadriddin Ayniy. Tanlangan asarlar. T.5. –T.:Badiiy adabiyot, 1965. – B.149.

² Boboyev X.B.Siyosiy huquqiy ta'limotlar tarixi.T.: Sharq, 2003.-B.154.

amirligi va Xiva xonligi kabi davlatlar ham tashqi ham ichki siyosatda mustamlaka ma'murlarning nazoratida bo'lishi, aholining ijtimoiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmay qolmadi.

XIX asrning ikkinchi yarmida Buxoro amirligi yakka hukmdor tomonidan boshqariladigan davlat edi. Amir Muzaffar va Amir Abdulahad hukmronligi davrida davlat chor hukumatining protektoratlik siyosati ostida bo'lganligi qayd etilgan. Bu davrda amirlikning ijtimoiy-siyosiy hayotini o'zgartirish yoki mazkur yo'nalishlarda islohotlarni amalga oshirishga amir va uning sodiq amaldorlari qarshilik qilishgan. Ahmad Donish va uning odil hukmdor xususidagi qarashlar ham o'z davrida siyosiy qarshilik va ta'qiblarga uchraganligi buning yorqin misolidir.

O'z davrining olimi, faylasufi, astronomi va qolaversa jamoat arbobi bo'lgan Ahmad Donish va uning faoliyatini tadqiq etish natijasida XIX asrning ikkinchi yartmida amirlikda hukm surgan bosh boshdoqlik, siyosiy va iqtisodiy qoloqlik sababalari va ularni keltirib chiqargan omillar nimalardan iborat ekanligini bitiruv malakaviy ish doirasida ko'rib chiqishga harakat qildik. Ahmad Donishning amir elchilari safida mirzolik qilib Rossiya shaharlari bo'lib qaytishi, uning jamiyat va davlat boshqaruvi iqtisodi va xo'jalik hayotini o'zgartirish kerak ekanligi xususida tegishli xulosalar chiqarganligini ko'ramiz. Anashu safarlarning mahsuli sifatida tarixiy, falsafiy va ijtimoiy ahamiyatga molik "Navodir-ul-vaqoe", "Mang'it amirlarning tarixi" (Tarjimaiy ahvoli amironi Mang'itiya) kabi asarlari dunyoga keldi.

Olimning "Navodir-ul-vaqoe" asari amirlikning o'sha davrdagi iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy hayotning dolzarb muammolariga bag'ishlangandir. . Garchi bu manba bilan bog'liq fikrlar o'z vaqtida nashr yuzini ko'rmagan bo'lsada zamondoshlari tomonidan o'rganilini qayd etish joiz. "Navodir ul-vaqoe" asarining qimmatli tomoni shundaki, unda "Qobusnoma", "Siyosatnoma" kabi asarlarning mazmuniga hamohangligidir. Buning misoli sifatida davlat boshqaruvi masalalari, hukmdorlarga xos xususiyatlar va siyosatshunoslikka oid fikrlarning mavjudligidadir. Bu asarda Ahmad Donish o'z yurtining jahondagi boshqa

mamlatlardan ijtimoiy-siyosiy va madaniy jihatdan o'ta qoloqligini anglab, davlatda mazkur yo'nalishda islohotlar olib borish kerakligini qayd etadi. Ushbu asarda Ahmad Donish tomonidan siyosiy go'ya va qarashlar asosida puxta ishlab chiqilgan tavsiyanomalar ham taklif etgan. Asarda odil hukmdor uning vazifa va xislatlari jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqib asosli tarzda bayon etilgan. Jumladan, uning fikricha, agar hukmdor barcha jabhalarda odilona va oqilona siyosat olib borsa, tashqi subyet va xalqlar bilan savdo-sotiq munosabatlarni o'rnatib yaqin siyosat olib borasa mamlakat obod xalq esa o'z navbatda farovon bo'ladi.

Ahmad Donish mamlakatning siyosiy taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etishi lozim bo'lgan Davlat Kengashi tashkil etish masalasiga ham alohida qayd etganligini ko'rish mumkin. Bu kengashda aholining barcha tabaqalaridan vakillar kiritib, davlat ahamiyatiga molik barcha ishlarning mazkur kengash orqali amalga amalga oshirilishi yaxshi natijalar berishi mumkinligini ham qayd etgan. Bu kabi qarashlar amirlik boshqaruv davrida muhim siyosiy siljish uchun xizmat qilgan. Ammo bu fikrlar olim kabi siyosiy ta'qiblarga uchragan.

Buxoro amirligining hukmdorlari va ular yuritgan boshqaruv siyosati xususida Ahmad Donish o'zining "Mang'it amirlarning tarixi" (Tarjimaiy ahvoli amironi Mang'itiya) asarida o'z ifodasini topgan. Asar Buxoroda hukmdor bo'lgan Muhammad Rahimxon davridan Amir Abdulahadga qadar bo'lgan amirlar tarixiga bag'ishlangan. Asar Ahmad Donish amirlarning hukmdorlik salohiyati va ular tomonidan amalga oshirilgan ichki va tashqi siyosat masalalarni tahlil etib bayon qilgan. Bu kabi yondashuv asosida yozilgan asar o'z navbatida bugungi kunga kelib XIX asr oxiri XX asr boshlarida Buxoro amirligi tarixini tadqiq etuvchi tarixchi olimlari uchun muhim manba vazifasini bajaradi.

Ahmad Donishning ilmiy me'rosi nafaqat amirlik tarixini o'rganishda, balki XIX asr ikkinchi yarmida Buxorodgi ilm-fan rivoji, amirlik aholisining ijtimoiy holatini o'rganuvchi jamiyatshunos va siyosatshunoslar uchun ham muhim manba vazifasini bajaradi.

Bitiruv malakaviy ishda o'rganilgan masalalar yuzasidan quyidagi taklif va tavsiyalarni tadqim etish maqsadga muvofiq:

- Ahmad Donishning “Navodir ul-vaqoe” va Nizomimulkning "Siyosatnoma" asaridagi davlat boshqaruvi masalalari xususidagi qarashlarni alohida bitiruv malakaviy tadqiqot sifatida o'rganish;
- Ahmad Donishning ilmiy merosini o'rgangan olimlar va ularning tadqiq yo'nalishlar asosida katalog tuzish;
- Ahmad Donishning ilmiy merosidagi ma'lumotlar asosida ko'rgazmali taqdimot va elektron manbalar yaratish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Prezident I.A.Karimov asarlari

- I.1** Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T.: O'zbekiston, 1995.- 278 b
- I.2** Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T.2 - T.: O'zbekiston, 1996. - 380 b.
- I.3** Karimov I.A. O'zbekiston milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura.T.1 - T.: O'zbekiston, 1996. – 364 b.
- I.4** Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida xavfsizlikka tapdid bararorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T. O'zbekiston, 1997. - 324b.
- I.5** Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. T.: Ma'naviyat, 2008.- 176b.

II. Asosiy adabiyotlar

- II.1** Abdullaeva A., Xolmirzaev X. Navodir ul-vaqoe o'zbek tilida. /Qomusiy mutafakkir. Buxoro, 2007. – 220b.
- II.2** Abdullaev V., Inomov.M., Abduraxmonov.SH. Navodir ul-vaqoedagi g'oyalar va zamonamiz./Qomusiy mutafakkir, Buxoro, 2007. 220b.
- II.3** Afoqova.N. "Navodir ul-vaqoe" tarkibidagi she'riy matnlarga oid dastlabki kuzatishlar./Qomusiy mutafakkir, Buxoro, 2007.-B.23.
- II.4** Ahmad Donish. Navodir ul-vaqoe T.: Fan, 1964.- 411b.
- II.5** Аҳмад Дониш. История мангитской династии. Душанбе.: Дониш 1967.- 125.6
- II.6** Ahmad Donish. Risola yo muxtasare az ta'rixi saltanati xonadoni mangitiya. Dushanbe, 1992. - 98 b.
- II.7** Ahmad Donish. Risola dar nazmi tamadtsun va ta'ovun. -Dushanbe, 1972. 146 b.
- II.8** Ахмад Дониш. Путешествие из Бухары в Петербург. Душанбе: Ирфон, 1976.-280 с.
- II.9** Alimova D., Rashidov U. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Buxorodagi siyosiy harakatlar va kurashlar. Buxoro 2009. - 119 b.
- II.10** Ayniy zamondoshlar xotirasida: xotiralar, maqolalar, she'rlar./T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti 1978 . - 209b.
- II.11** Ayniy.S Asarlar .T. 5 - T.: Badiiy adabiyot, 1966 . - 312 b.
- II.12** Ayniy.S Asarlar . T. 6- T.: Badiiy adabiyot, 1967. - 420 b.
- II.13** Vohidov R., Mahmudov M. Ustod Sadriddin Ayniy saboqlari. T.: Fan, 2004 . - 314 b.
- II.14** Jumaev R.G'. Ahmad Donishning fuqarolik jamiyatiga oid qarashlari. /Fuqarolik jamiyatini shakllantirishda yoshlarning roli.Buxoro.2010. -B.102-105.
- II.15** Mirzo Salimbek. Kashko'li Salimiy va Tavorixi muttaqadimin va muttaaxirin. Buxoro -2003. 343 b.

- II.16** Мирзо Салимбек. Тарихи Салими (источник по истории Бухарского эмирата). / Перевод с персидского Н.Норкулов.–Тошкент: Академия, 2009. – 330 с.
- II.17** Muhammad Ali Baljuvoni. Tarixi Nofei. T.: Akademiya, 2001. - 121b.
- II.18.**Rahimov N. Sadriddin Ayniy ijodiga ustozlar ta`siri. T.: O`zbekiston, 1972 . - 24. b
- II.19** Rahmon Muiniy. Ahmad Donish hayoti haqida Buxoro - 2007. - 38 b.
- II.20** Раҳмонов Т. Аҳмад Донишнинг давлатчилик тамойиллари. /Из истории культурного наследия Бухоры 11-выпуск, Бухоро - 2008.-80.б
- II.21** Раупов.С "Navodir ul-vaqoe"da adolatli shoh muammosi./ Qomusiy mutafakkir. Buxoro, 2007.-80b.
- II.22** Sayyid Mansur Olimiy. Buxoro - Turkiston beshigi. Buxoro, 2004. - 126 b.
- II.23** Сухарева О.А. Бухара. XIX начало XX вв. - М., 1956. - 324 с.
- II.24** Сухарева О.А. К истории городов Бухарского ханства. М.,1958.
- II.25** Сухарева О.А. История среднеазиатского костюма. М., 1982. -179 с.
- II.26** Toshev E., Toshev J. "Navodir ul-vaqoe"da jamiyat taraqqiyoti omillari to`g`risida./ Qomusiy mutafakkir. Buxoro, 2007.-87 b.

III. Davriy matbuotlar

- III.1** Axmedova Z. Ahmad Donish Davlat boshqaruvi tizimi to`g`risida. // Falsafa va huquq. 2008, №4.- B 41.
- III.2** Naimov I. Amu-Buxoro kanalining ilk loyihasi. // Buxoroyi Sharif 2012, № 6.- B.8.
- III.3** Tosheva SH. Ahmad Donish va uning tarixiy risolasi. // Buxoro mavjlari. 2007, №3. B-37.
- III.4** Valixo`jaev B. Ustod Ayniy merosi. // O`zbek tili va adabiyoti, 2003, №5 – B. 14

